

O'ZBEK TILI

Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy
o'rta ta'lim maktablarining
11-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tomonidan tavsiya etilgan

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2020

UO'K 811.512.133 (075.3)
KBK 81.2 O'zb -922
O'-16

Mualliflar:

**Muxitdinova Xadicha, Tolipova Fotima, Nuriddinova Dildor,
Abduraimov Shohruh, Eshboeva Ra'no**

Taqrizchilar:

Xudoyberganova Durdona – O'zbekiston Fanlar akademiyasi katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori;

Odilova Saodat Abduraximovna – Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f.d.

Ekspertlar:

Izbosarova Dinora – Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi 104-maktab o'qituvchisi;
Karimjonova Gulnora – Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 320-maktab
o'qituvchisi;

Aydarova Fotima – Toshkent shahar Sirg'ali tumanidagi 300-IDUM o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



tinglang;



bilib oling;



o'qing;



yozing;



gapiring;



uyga vazifa.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari
hisobidan chop etildi

X. Muxitdinova va b.

O'zbek tili: Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 96 b.

UO'K 811.512.133 (075.3)
KBK 81.2 O'zb -922

ISBN 978-9943-6449-4-6

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

1-DARS

1-MAVZU. O'ZBEKISTON – KELAJAKDA (Uyushiq bo'laklar)



1-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing.

O'ZBEKISTON – KELAJAKDA



O'zbekiston 130 dan ortiq millat va elat yashaydigan ko'p millatli davlat hisoblanadi. Yurtimiz mustaqillik davrida ko'plab sohalarda yutuqlarga erishib kelmoqda. O'zbekiston bu vaqt davomida **mustaqil** davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi ko'plab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Hozirgacha 140 qa yaqin davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, jahonda o'zining **ochiq siyosati** bilan e'tibor qozonib kelmoqda. **[A]**.

O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar ichida yerosti va usti boyliklariga va kattagina mehnat kuchiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda yurtimizda neft va gaz sanoati, elektroenergetika, kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, avtomobilsozlik, agrosanoat va chorvachilik klasterlarini yaratish kabi sanoat sohaslariga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Masalan, umumiy qiymati 4 mlrd dollardan oshadigan Ustyurt gaz-kimyo majmuasining qurilishi, umumiy qiymati 10 mlrd dollardan ortiq baholanayotgan Atom elektr stansiyasi (AES) qurilishining boshlanishi O'zbekiston energetika va sanoatda katta marralarni ko'zlayotganligidan dalolatdir. Bundan tashqari, yurtimizda kichik biznes rivojlanib, O'zbekiston mahsulotlari jahon bozorlariga kirib bormoqda. Ayniqsa, trikotaj mahsulotlari **xaridorgirligi** va sifati bilan jahon bozorlarida o'z o'rnini egallamoqda. **[B]**

O'zbekistonda ta'lim, sport, **madaniyat** sohaslariga ham katta e'tibor berilmoqda. Ko'plab sport inshootlari, ta'lim muassasalari va madaniyat maskanlari **qurilib**, foydalanishga topshirilmoqda. Yoshlarning malakali va yetuk mutaxassis bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.



Fikrimizning yorqin misoli sifatida shuni aytishimiz mumkin, kelajakning “**oltin bosh**”larini tarbiyalash maqsadida respublika bo‘ylab Prezident maktablari ochilmoqda. Bu maktablarda o‘z sohasi bo‘yicha jahonning yetuk mutaxassislari, pedagoglari yurtimiz farzandlariga ta‘lim-tarbiya berishmoqda.

Bundan tashqari, **malakali** kadrlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib yurtimizda 90 ga yaqin mahalliy oliy ta‘lim muassasalari va 20 dan ortiq xorijiy oliy ta‘lim muassasalarining filiallari o‘z faoliyatini olib bormoqda. Ularda kreativ fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, keyingi yillarda jahon mehnat bozorida **raqobatbardosh** va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etildi. Bu jamg‘arma ko‘magida ko‘plab yoshlarimiz jahonning nufuzli ta‘lim muassasalarida malakasini oshirib, tahsil olib qaytmoqdalar. Shular bilan bir qatorda, ta‘kidlashimiz lozimki, respublikamizning barcha yirik shaharlarida IT parklarining ochilayotganligi yoshlarimizning zamon bilan hamnafas bo‘lishiga zamin yaratadi. **[D]**



Men ham shu yurt farzandi sifatida ishonamanki, yaqin kelajakda olimlarimiz, adiblarimiz ham eng **nufuzli** xalqaro mukofotlar sohibi bo‘lishadi, sportchilarimiz xalqaro musobaqalardan shoda-shoda medallar bilan yurtga qaytishadi, jahon kuboklarini boshlari uzra ko‘tarishadi. Osiyo o‘yinlari, olimpiada o‘yinlari, jahon chempionatlari bizning Vatanimizda ham o‘tkaziladi. Dunyo xalqlari bizni ko‘rganda: “O‘zbekistonliklardan ko‘ra mehmon do‘st va ahil xalq hech yerda yo‘q!” degan bahoni berishadi. **[E]**



2-topshiriq. Yuqorida berilgan matnning xatboshilari **[A, B, D va E]** nima haqida ekanligini aniqlang va belgilang.

1. O‘zbekiston aholisining etnik tarkibi. **A**
2. Kelajakdagi O‘zbekiston. _____

3. Asosiy maqsadimiz – yosh avlodni yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash. _____
4. O'zbekistonda ishlab chiqarish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar. _____
5. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlari. _____



3-topshiriq. Matn yuzasidan berilgan savollarga javob bering.

1. O'zbekiston qaysi tashkilotlarga a'zo bo'lgan?
2. O'zbekistonning tashqi siyosati haqida bilganlaringizni gapiring.
3. O'zbekistondagi yana qanday yirik korxonalarni bilasiz?
4. Siz O'zbekistonni kelajakda qanday tasavvur qilasiz?
5. Siz Vataningiz uchun nimalar qilyapsiz va kelajakda nimalar qilmoqchisiz?

BILIB OLING! Bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil vazifada keladigan so'zlarga **uyushiq bo'laklar** deyiladi. Uyushiq bo'laklar bir-biridan **vergul** yoki **teng bog'lovchilar** bilan ajratiladi. Gapning barcha bo'laklari uyushib kelishi mumkin. Masalan: **Tohir, Gulnoza va men** (kim?) *kutubxonaga bordik* (ega).

Biz a'lochimiz va jamoatchimiz (kesim).

Uning so'zlariga goh kulib, goh jiddiy quloq solardi (hol).
Bog'da nafis gullarning, xushbo'y giyohlarning hidlari ufuradi (aniqlovchi).

Men onamga, otamga va opamga sovg'a oldim (to'ldiruvchi).



1-mashq. Matn asosida tuzilgan gaplarda tushirib qoldirilgan uyushiq bo'laklarni tiklang.

1. O'zbekiston ..., ..., ... ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi.
2. O'zbekiston va ... katta marralarni ko'zlamogda.
3. Yurtimizda ko'plab ... , ... va ... qurilib, foydalanishga topshirilmogda.

4. bizning
Vatanimizda ham o'tkaziladi.

5. Dunyoda o'zbekistonliklardan ko'ra va xalq
hech yerda yo'q!

 **2-mashq.** Qavsda berilgan so'z va birikmalar yordamida gaplar tuzing va uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.


1. (*bilimdon / aqlli / mehnatsevar / yoshlar / yurt / kelajak / hisoblanmoq*)
.....

2. (*bog'imizdagi / o'riklar / olmalar / shaftolilar / gulga kirmoq*)
.....

3. (*sadoqat / do'stlik / vafodorlik / kabi / tuyg'ular / doim / qadr topmoq*)
.....

4. (*biz / Samarqand / Buxoro / va / Xiva / sayohat qilmoq / uchun / bormoq*)
.....

5. (*tadbirkorlar / ishbilarmonlar / uchun / ko'plab / yengilliklar berilmoq*)
.....

 **4-topshiriq.** Suhbatni o'qing va do'stlaringiz bilan davom ettiring.

Temur: Salom, Sanjar! Yaxshimisan, ta'tilni yaxshi o'tkazdingmi?

Sanjar: Salom, Temur! Rahmat, yaxshiman. Bu yil ta'tilni zo'r o'tkazdim. O'zing yaxshimisan?

Temur: Ha, yaxshiman. Nimalar bilan band bo'lding, nimalar qilding?

Sanjar: Yoz bo'yi to'garaklarga qatnadim, ta'tilning oxirgi ikki haftasida Dubayga dam olgani borib keldik.

Temur: O, zo'r-ku! Qanday joylar ekan!

Sanjar: Dengiz bo'yi chiroyli, havosi toza, jannatmisol joylar ekan. Shaharni aytmaysanmi? Ko'p qavatli binolar shunaqangi ko'pki, ko'rib hayratlanasan. Dunyodagi eng baland inshoot – "Burj xalifa"ga ham chiqdik. Atrof juda hayratlanarli ko'rinarkan.

Temur: Ha, rostdan zo'r dam olibsan!

Sanjar: Bizda ham shunaqa shaharlar, inshootlar qurilar ekanmi? A?

Temur: Albatta, bizning yurtida ham "Toshkent city" qurilyapti. Yaqin

kelajakda yanada go'zal shaharchalar, baland binolar, inshootlar bunyod etiladi.



“O‘zbekiston – kelajakda” mavzusida matn tuzing.

2-DARS



5-topshiriq. Elchi va jurnalist suhbatini o‘qing va do‘stlaringiz bilan diplomatik munosabatlar haqida suhbatlashing.

Jurnalist: Assalomu alaykum, ustoz! Bugungi tadbirimizga vaqt ajratib tashrif buyurganingizdan xursandmiz!

Elchi: Va alaykum assalom! Men ham siz kabi talabalar davrasida ekanligimdan xursandman.

Jurnalist: Uzoq yillik tajribangiz davomida bir qancha davlatlarda elchi bo‘lib faoliyat yuritgansiz. Elchilik haqida gapirsangiz. Aslida elchilar kimlar?

Elchi: Elchilar bir davlatning boshqa davlatlar bilan aloqalarini olib boruvchi, munosabatlarini yo‘lga qo‘yuvchi shaxs, ya’ni diplomatik vakil. Elchilar donishmand, uddaburon, ziyrak, so‘zamol bo‘lishi kerak.

Jurnalist: Elchilarning yurt ravnaqiga qo‘shadigan hissalarini haqida gapirsangiz.

Elchi: Ular yurtni dunyoga tanitadi, davlatning imkoniyatlarini, resurslarini o‘zga davlatlarda namoyon qiladi. Ya’ni o‘sha yurtni o‘rganadi, qaysi iqtisodiy-ijtimoiy sohalarida aloqalarni yo‘lga qo‘yish mumkinligini aniqlaydi. Natijada o‘zbek mahsulotlari jahon bozorlariga kirib boradi, dunyo O‘zbekistonni taniydi.

Jurnalist: Elchilar qanday sifatlarga ega bo‘lishlari kerak?

Elchi: Ular, avvalo, xushxulq, ziyrak va so‘zamol bo‘lishlari hamda siyosat, iqtisod, madaniyat va tarixdan xabardor bo‘lishlari lozim, qolaversa, ko‘plab tillarni bilishlari kerak.

Jurnalist: Elchilarda qanday illatlar bo‘lmasligi shart?

Elchi: Shoshqaloqlik va jahldorlik.

Jurnalist: Bo‘lajak elchilarga qanday maslahat berasiz?

Elchi: Buning uchun hozirdan yaxshi o'qishingiz, ko'plab tillarni o'rganishingiz kerak. Agar biror yurtga elchi etib tayinlansangiz, avvalo, o'sha xalq tilini o'rganishga harakat qiling, bu sizning o'sha davlat Prezidenti va xalqining hurmatini qozonishingizga sabab bo'ladi. Qolaversa, o'sha yurt madaniyati, urf-odatlari, tarixi, iqtisodi va siyosiy tuzumini yaxshilab o'rganing.

Jurnalist: Yana qanday maslahatlar bera olasiz?

Elchi: O'sha davlatning hurmatli kishilari bilan yaqin munosabatda bo'ling. Buyuklarning qabrlarini ziyorat qiling. Tarixiy joylarini borib ko'ring. Xayriyalarda qatnashing, yurtning madaniyati va tarixi bilan ularni tanishtiring.

Jurnalist: Qimmatli o'g'itlaringiz uchun rahmat! Yurt ravnaqiga qo'shayotgan xizmatlaringizda sizga kuch-quvvat tilaymiz.

Elchi: Sizga ham rahmat! Sog' bo'ling!



6-topshiriq. Matn yuzasidan berilgan savollarga javob yozing.

1. Elchilarda qanday sifatlar bo'lishi kerak?
2. Elchilarda qanday illatlar bo'lmasligi kerak?
3. Elchilar yurt taraqqiyoti va rivoji uchun qanday ishlarni amalga oshirishadi?
4. Elchilar o'zga yurtning hurmatiga erishishi, mehrini qozonishi uchun qanday ishlarni amalga oshirishi kerak?
5. Elchi bo'lish uchun qaysi fanlarni yaxshi o'qish kerak?



3-mashq. Quyidagi gaplarda uyushiq bo'laklar tushirib qoldirilgan. Ularni tiklab gap tuzing va daftaringizga yozing.

1. Siz-u bizga bu baxt va ... istiqlol berdi.
2. A'lo o'qish – asosiy hamda sharaflı vazifamiz.
3. Kitoblarni, daftarlarni oldim.
4. Ichkaridagi va tashqaridagi daraxtlari qiyg'os gullagan.
5. Salomat va ... singil va ukalari – 6- sinf a'lochilari.

(bizning va sizning/ Akramlarning/ toleni/ ukam va singlim uchun / gilos hamda o'rik)



7-topshiriq. She'rni ifodali o'qing. Ma'nosini so'zlab bering.

AYTGIL, DO'STIM

*Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

*Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,
Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

*Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?
Don axtargan go'shtxo'rlarga yem bo'ladi.
Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

*Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?
Axir Vatan bitta, sen ham bittadirsan,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

*Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo'lg'in cho'ponlarga,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

(Iqbol Mirzo)



“Men Tashqi ishlar vazirligida ishlamoqchiman”, “Men elchi bo‘lmoqchiman” mavzularidan biriga matn tuzing.

1-DARS

2-MAVZU. ZIYRAKLIK (Ajratilgan bo‘laklar)



1-topshiriq. Tinglang va matn asosida topshiriqni bajaring.

Har bir ishda ehtiyotkorlikni va ziyraklikni qo‘ldan bermaslik lozimdir. Bu xislatlarni yo‘qotgan kishi firibgar, qalloblarga aldanib, keyin pushaymon bo‘ladi. Vaqt o‘tgandan keyin pushaymon bo‘lish foyda bermaydi. Qadim zamonda Eron shaharlarining birida Alovuddin ismli mo‘tabar kishi yashardi. Kunlardan bir kuni kechasi yaxshi kiyingan, xushbichim bir yigit xizmatchisiga bir sandiqni ko‘tartirib Alovuddinning uyiga keldi va uning xizmatchisini chaqirib:

– Xojangga ayt, meni qabul qilsin, unga aytadigan yashirin so‘zim bor, – dedi. Xizmatchi yigitning iltimosini xojasiga yetkazdi. Alovuddin kirishga ruxsat berdi. Yigit sandiq ko‘targan xizmatchisi bilan Alovuddinning huzuriga kirib, ta‘zim bilan salom berdi. Alovuddin yigitni izzat-ikrom bilan qabul qilib, nima sababli qadam ranjida qilganini so‘radi. Yigit ta‘zim qilib:

– Men qaroqchi-o‘g‘rilardanman. Shu kasbimning yaramasligini, ya‘ni yomon kasbligini bilib, tavba qildim. Mana bunda, sandiqda, ellik ming oltin bahosida bo‘lgan narsalar bor, ularni sizga nazr etib keltirdim. Bularni olib, o‘z halol pulingizdan ming oltin bersangiz, uni dastmoya qilib ishlataman, – dedi va sandiqni ochib ko‘rsatdi.

Sandiq ichi oltin idishlar, la‘l, yoqut, gavharlar bilan liq to‘la edi. Alovuddin buni ko‘rib hayratda qoldi. Darhol u yigitga ming oltin sanab berdi. Yigit ming oltinni olgandan keyin Alovuddin bilan xayrlashib, xizmatchisi bilan birga chiqib ketdi.

Ertasi kun ertalab Alovuddin gavharshunoslarni chaqirib, ularga sandiqdagi narsalarni ko‘rsatdi. Hamma oltin, gavhar idishlar, la‘l, yoqutlar oltin halli shisha ekanligi, ya‘ni soxta buyumlar ekanligi bilindi. Alovuddin qallobning ishidan juda ranjib, xizmatchilariga uni topib keltirishni buyurdi.

Xizmatchilar u yigitni surishtirdilar, izladilar, lekin hech yerdan darak topmadilar. Hatto Alovuddindek kishi ham ehtiyotsizlik tufayli aldanib qoldi.



2-topshiriq. Quyidagi hukmlarni o'qing va daftaringizga yozing. Ularning matn mazmuniga mosligini aniqlang.

Agar ma'lumot matn mazmuniga mos bo'lsa, *TO'G'RI*.

Agar ma'lumot matn mazmuniga mos bo'lmasa, *NOTO'G'RI*.

Agar ma'lumot matnda umuman keltirilmagan bo'lsa, *BERILMAGAN* deb daftaringizga yozing.

1. Inson har bir ishida ehtiyotkor bo'lishi kerak. *TO'G'RI*.
2. O'g'ri o'zining kasbini tashlab, tavba qildi. _____
3. Alovuddinni o'z xizmatkori aldab ketadi. _____
4. O'g'rining mol-mulkini qaroqchi tortib oldi. _____
5. Alovuddin bir boyning mol-mulkini aldab olib ketdi. _____
6. Ehtiyotsizlik sababli inson aldanib qolishi mumkin. _____
7. Alovuddin o'g'ridan olgan gavharlarni qimmat narxda sotdi. _____
8. Inson ochko'zligi sababli aldanishi mumkin. _____



3-topshiriq. Matn yuzasidan berilgan savollarga javob bering.


1. Alovuddin nima sababdan aldanib qoldi? O'z fikringizni bildiring.
2. Alovuddinning o'rnida bo'lsangiz nima qilar edingiz?
3. Ziyraklik, ehtiyotkorlik deganda nimani tushundingiz?
4. Ehtiyotsizlik yoki soddalik tushunchalarini qiyoslang.

BILIB OLING! Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklar **ajratilgan bo'laklar** deyiladi. Ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan doimo keyin keladi va yozuvda **vergul, tire** bilan ajratiladi.

Masalan:

Boyagi yigitning, Avazning, qo'li gul ekan.

Bizlarga, ya'ni yoshlarga barcha sharoitlar yaratilyapti.

 **1-mashq.** *Oqillar, qalloblar, donishmandlik, surishtirmoq, soxta, o'sha kuni, ma'rifat* so'zlaridan foydalanib ajratilgan bo'lakli gaplar tuzing.

 **Ziyraklik fazilati haqida kichik matn tuzing va fikringizni hayotiy misollar bilan tushuntiring.**

2-DARS

 **4-topshiriq.** Matnni tinglang va topshiriqlarni bajaring.

ILM VA HUNAR O'RGANISH


Ajdodlarimizdan bir ulamo aytgan ekan: "Ilm yoki hunar o'rgan, u sening yoshlik paytlaringda to'g'ri yurishingni ta'minlaydi. Katta bo'lganingda buyuk shaxsga aylanishingda asosiy sabablardan biri bo'ladi. Ilm va hunar doim sening hamrohing bo'lib, adashishingdan va qoqilishingdan saqlaydi". Darhaqiqat, yoshlikda ilm yoki hunar o'rganish payida bo'lish kerak.

Ilm yoki hunar o'rganishning shartlari ham bor: avvalo, ilm va hunarni ziyraklik va rag'bat bilan egallash lozim. Qolaversa, ilm va hunarni yaxshi niyatlarni ko'zlab, turmushga tatbiq etish uchun o'rganish zarur. Shunda u insonlarning og'irini yengil, hayotini farovon qiladi. Ilmli va hunarmand kishi esa bundan huzurlanadi, zavqlanadi.


Yana shunisi ham borki, ilm va hunar ming mashaqqat bilan egallanadi. Buning uchun inson irodali bo'lishi kerak. Irodasi mustahkam insonlargina ilm yoki hunar bobida yuksak marralarga erishadi. Ilm o'rganishda beg'amlik va beparvolikdan saqlanish lozim. Bu illatlar ilm va or-nomusning dushmanidir. Ilm yoki hunar o'rganish, uni saqlash va me'yoriga yetkazishda yaxshi xulq muhim mezon hisoblanadi. Ya'ni ilm va hunarni yaxshi xulq bezaydi. Irodali, ilmi to'kis, hunarmand insonlarni barcha odamlar hurmat qilishadi.

 **5-topshiriq.** Matn asosida berilgan quyidagi qaysi hukmlar *to'g'ri* yoki *noto'g'ri* ekanligini yozing.

1. Yoshlikda ilm yoki hunar o'rganish insonni yomon yo'llarga kirib ketishidan asraydi. *TO'G'RI* .
2. Ilmni birovga qasd qilib, bahslashib o'rganish kerak. _____
3. Ilmli insonlar hayotni farovon qilishadi, yurtni gullatishadi. _____
4. Hunarmand kishilar beparvo va loqayd bo'ladilar. _____
5. Inson faqat ilmli bo'lishi kerak, yaxshi xulqli bo'lishi shart emas. _____
6. Ilm yoki hunarni hayotni qulaylashtirish uchun o'rganish kerak. _____
7. Yaxshi xulqli hunarmand, ilmli insonlarni hamma yaxshi ko'radi. _____

 **6-topshiriq.** Matn asosida savollarga javob bering.

1. Matn nima haqida ekan? Shu haqida o'z fikrlaringizni bayon qiling.
2. Ilm va hunarni nima maqsadda o'rganish kerak?
3. Ilmli yoki hunarni egallash uchun insonda, avvalo, qanday fazilat bo'lishi lozim?
4. Ilmli va hunarmand insonlarning boshqa insonlardan farqi haqida gapiring va hayotiy misollar keltiring.
5. Hozirgi kunda o'z ilmi va hunari bilan dunyoni o'zgartirayotgan insonlar haqida gapiring.

 **7-topshiriq.** *“Men hunarmand bo'lmoqchiman”, “Men olim bo'lmoqchiman”, “Men biznesmen bo'lmoqchiman”* mavzularidan biriga kichik matn tuzing.

 **2-mashq.** Gaplarda tushirib qoldirilgan ajratilgan bo'laklarni tiklab, daftaringizga ko'chiring.

1. Men, ... , hozir 11-sinfda o'qiyman.
2. Ularni, ... , boshqa ishlarga jalb qilmaslikka qaror qilindi.
3. Bir hafta davomida, ya'ni ... biz final musobaqalariga tayyorlanamiz.
4. Biz, ... , yo'l qo'yilgan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik.
5. Sanjarga, ... , akasining fikri g'oyat yoqdi.

BILIB OLING! Ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyatini, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat **tavsifnoma** deyiladi. Tavsifnoma quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

– birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxonada, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi;

– ikkinchi qismida xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga, o'qishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo'lganligi va boshqa asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi;

– uchinchi qismida esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi.

8-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
15-ixtisoslashtirilgan maktabning
11-sinf o'quvchisi, 2003-yilda tug'ilgan,
millati o'zbek Sattorova Adibaga

TAVSIFNOMA

Sattorova Adiba Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 15-ixtisoslashtirilgan maktabning 11-sinfida o'qiydi.

Maktabda o'qish davomida u intizomli, ziyoratkor, zukko va tirishqoq o'quvchi sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qildi. Ingliz tili va tarix fanlariga alohida qiziqdi. U 2019-yilning mart oyida "Bilimlar sinovi"ning respublika bosqichida qatnashib, faxrli o'rinni egalladi.

A.Sattorova maktabning jamoat ishlarida faol qatnashadi, «Yosh tarjimon» devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi. U kamtarligi, to'g'riso'zligi va do'stlariga mehribonligi sababli sinfdoshlari hamda murabbiylarining hurmatiga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma Olmazor tuman hokimligiga taqdim qilish uchun berildi.

Maktab direktori:	(imzo)	<i>G. Yorboboyeva</i>
Sinf rahbari	(imzo)	<i>U. Saidvaliyev</i>
	(sana)	(muhr)

9-topshiriq. Tavsifnomani qismlarga ajrating. Har bir qismning mazmunini izohlang.



Do'stingizga tavsifnoma yozing.

1-DARS

3-MAVZU. BUYUK AJDODLARIMIZ
(Kiritmalar)



1-topshiriq. Tinglang va undagi asosiy fikrlarni toping.

QOMUSIY OLIMLAR

Ming yillar ilgari madaniyat va maorif markazi Gretsiya bo'lgan. U yerda Aristotel, Ptolemey, Arximed kabi buyuk faylasuflar olamning tuzilishi haqida nazariyalarni ishlab chiqqanlar. Gippokrat va Galenlar tibbiyot asarlarini saqlaganlar va ko'chirib yozganlar. Ularning qarashlari Sharq falsafasi bilan birlashgan. Jumladan, rim raqamlari Sharqda Abu Rayhon Beruniy va Al-Xorazmiylar tomonidan takomillashtirilgan. Qadimgi vaqtlarda 1 (bir) raqami "algoritm" deb yuritilgan, ya'ni u aynan IX asrda yashagan Al-Xorazmiy nomi bilan bog'langan. 0 (nol) belgisi va o'nliklar esa Beruniy tomonidan kiritilgan. Xuddi ana shu hisob tizimidan hozirgi kunda ham foydalanilmoqda.

Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari uni G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur qilgan. Ko'p kasalliklarning paydo bo'lish sabablari, alomatlari, shuningdek, 790 dan ziyod dori-darmonlar ro'yxati keltirilgan

ushbu asari sababli Abu Ali ibn Sino tibbiyot ilmining asoschisi sifatida butun dunyoda tan olingan. X asrda yashagan Al-Mas'udiy Darvindan 900 yil avval evolutsiya nazariyasini taklif etgan buyuk alloma edi. U geografiya, biologiya va boshqa fanlar bo'yicha buyuk asarlar yaratgan olimdir.



2-topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing va suhbatlashing.

Dasha: Salom, Aziz, qalaysan?

Aziz: Yomon emas. O'zing yaxshimisan?

Dasha: Rahmat. O'zbek tilidan berilgan vazifalarni bajardingmi?

Aziz: Ibn Sino haqidagi matnni aytyapsanmi? Albatta, o'qidim. Menga Sharq allomalari juda yoqadi.

Dasha: Kimlarni allomalar deb atash mumkin?

Aziz: Allomalar o'z maktabini yaratgan buyuk olimlardir.

Masalan, Mirzo Ulug'bek yulduzlar ilmining asoschilaridan, Abu Nasr Forobiy mantiqshunos olim, Abu Rayhon Beruniy tarixchi olim, Abu Ali ibn Sino tibbiyotchi, Muhammad Muso al-Xorazmiy matematik olim, Ahmad al-Farg'oniy matematik va tabiatshunos olim bo'lgan.

Dasha: Tushunarli.

Aziz: Bilasanmi, qachonlardir raqamlar "algoritm" deb yuritilgan va u IX asrda yashagan Al-Xorazmiy nomi bilan bog'liq ekan. Hozirgi o'nlik raqamlar olimning "Al-jabr val-muqobala" kitobi orqali dastlab hindlarga, so'ng arablarga, ulardan esa g'arbliklarga o'tgan. Hozir bu raqamlar butun dunyoda ishlatiladi. Ibn Sino – Avitsennaning "Al-Qonun" asarida juda ko'p kasalliklarning paydo bo'lish sabablari, ularning alomatlari, shuningdek, 790 dan ziyod dori-darmonlar ro'yxati keltirilgan ekan. X asrda yashagan Al-Mas'udiy degan olim geografiya, biologiya va boshqa fanlar bo'yicha asarlar yozgan va ularda Darvindan 900 yil avval evolutsiya nazariyasini ilgari surgan ekan.

Dasha: To'g'risini aytsam, men bular haqida endi eshityapman...

 **3-topshiriq.** Suhbat matnidagi tarixiy shaxslar nomini va ular yaratgan buyuk kashfiyotlarni ko'chirib yozing.

- 1.....
- 2.....

BILIB OLING!

Matn yoki gap mazmunini qo'shimcha fikr bilan to'ldirishga xizmat qiluvchi so'z birikmalari va gaplar **kiritmalar** deyiladi. Ular tire, qavs yoki vergul bilan ajratib yoziladi. Masalan: ***Mardon ota (mahallamizning faxriysi) biznikiga tez-tez chiqib, buvam bilan suhbatlashib o'tirar edilar.***

 **1-mashq.** Gaplarni o'qing. Kiritmalarni aniqlab yozing.

1. Uning o'g'illari: (ularni hamma taniydi) Murod va Hakim maktabda o'qiydi. 2. Mushuk yarmi qizil, yarmi sariq ko'ptokni (u Adibaning mushugi) u yoqdan bu yoqqa dumalatish bilan ovora edi. 3. Ona bolalariga ertak va naqlar aytib bera boshladi (Mehri xola ertak aytishga usta edi).

 **4-topshiriq.** Ilm haqidagi maqollar mazmunini izohlang.

1. Bilimli ming yashar, bilimsiz bir yashar.
2. Ilmli odam oqil, ilmsiz odam johil.
3. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog'in tishlar.
4. Bilmaganin so'rab o'rgangan – olim, orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.

 **“Qomusiy olimlar” matnidan foydalanib, dunyo kashfiyotlarini kim?, qachon?, nimani yaratgan? so'roqlari yordamida javob yozing.**

2-DARS

 **5-topshiriq.** Tinglang va berilgan topshiriqlarni bajaring.

Buyuk adib Abdulla Qodiriyning o'g'li Habibulla Qodiriyning yozishi-cha, otasi “O'tkan kunlar”ni yozish tarixini hikoya qilganda, gap orasida shunday degan:

“Bir kuni bog‘imizga otamni ko‘rgani shahardan bir chol mehmon bo‘lib keldi... U tog‘amning eski qadrdoni ekan... Ularning suhbatlaridan men shuni angladimki, bu mehmon toshkentlik bo‘lib, uy-joyli, bola-chaqali kishi ekan. Ammo yoshlik chog‘larida savdo vaji bilan Andijonga borib qolib, u yerda ko‘p yillar istiqomat qilgan, Andijondan ham uylanib, bola-chaqali bo‘lgan va keksaygach, o‘z shahriga qaytib kelgan ekan. Mehmonning shu soddagina tarixi menga chuvalgan ipning uchini topib berganday, yozmoqchi bo‘lganim – “O‘tkan kunlar” romanining shaklini chizib berganday bo‘ldi. Shu asosda boshimda voqeani asta-sekin kengaytira, rivojlantira boshladim”. (“Sharq yulduzi”, 1965, № 11, 221-b.) [A]

Shuningdek, Habibulla Qodiriyning ta’kidlashicha, otasi o‘z asarida kitobxonga to‘g‘ri tasavvur berish maqsadida shaharlar kezib, ko‘p yashagan, o‘sha davrni ko‘rgan, eshitgan shaxslarni izlagan, ular bilan suhbatlashgan va asardagi har bir harakat o‘rinlarini aniqlagan, mo‘ljallagan, taxminlagan.

“Men Marg‘ilon ko‘chalarida yurib, karvonsaroy, eski o‘rda o‘rinlarini belgiladim. Mirzakarim qutidor, usta Olim, Homid, Sodiqlar uyini taxminladim va “Xo‘ja Ma‘oz”da bir kecha tunadim, – derdi dadam, mening roman haqidagi mayda-chuyda, ezma savollarimga ham javob berib, – O‘zbek oyim – bu Xosiyat bibing (dadamning opasi), Oftob oyim – Xonim bibing (oyimning opasi), Kumush esa – Oyukumush opang, deb kulardi” ... [B]

(Habibulla Qodiriy. “Otam haqida”)



6-topshiriq. Matnga sarlavha qo‘ying. Matnda ifodalangan asosiy fikrni toping va aynan shu fikrni kengaytiring.

.....



7-topshiriq. Matndagi A va B bandlarni III shaxs nomidan so‘zlab bering.



2-mashq. Matnni to‘ldirishga xizmat qilgan birikmalarni ko‘chiring.

- 1.....
- 2.....



Buyuk ajdodlarimiz va ularning kashfiyotlari bo'yicha berilgan jadvalni to'ldiring.

Buyuk ajdodlar nomi	Ularning kashfiyotlari nomi



1-DARS

**4-MAVZU. O'LKAMIZNING ASL FARZANDLARI
(Undalma)**



1-topshiriq. Matnni o'qing.



Ravshan Ermatov 1977-yilda Toshkentda dunyoga kelgan. U FIFA tomonidan 2003-yil xalqaro hakamlikka tayinlangan. R.Ermatov 2008, 2009, 2010 va 2011-yillarda futbol bo'yicha Osiyoning "Eng yaxshi hakami" deb tan olingan. Xalqaro futbol uyushmalari federatsiyasi 2011-yilda uni jahonning eng yaxshi hakami deb e'tirof etgan.

R. Ermatov jahon chempionatlarini eng ko'p boshqargan hakam sifatida rekord o'rnatgan bo'lib, bugungi kunda ham O'zbekiston nomini butun dunyoga tanitib kelmoqda. R. Ermatov "O'zbekiston iftixori" unvoni, "El-yurt hurmati" va "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan.



2-topshiriq. Ravshan Ermatovdan olingan intervyuni o'qing va munosabat bildiring.

– Ravshan aka, hakamlik faoliyatingiz haqida gapirib bersangiz. Qachon hakam bo'lishga qaror qilgansiz?

– Futbolchilik faoliyatimni surunkali jarohat tufayli erta tugatdim, otam bir necha marta hakamlikda o'zimni sinab ko'rishni taklif qilgan. Ammo

o'shanda men juda qiziqqon futbolchi bo'lganman, hakamlarni yomon ko'rardim. Shu bois doim otamga: "Yo'q", – derdim. Jarohatdan keyin murabbiy bo'lish istagi ham bo'lgan, yosh murabbiylar uchun kurslarda o'qib, litsenziya ham olganman.

Keyin bir voqea bo'ldi. Har yakshanba Toshkent shahar chempionati bo'lardi, otam boshqarayotgan jamoa ishtirokidagi o'yinga hakam kelmay qoldi. Men stadionda edim. O'shanda otam baribir hakamlik qilishga majbur qilgandi. Krossovkada, hakamlik formasi va kartochkalarsiz bitta hushtak bilan ishlaganman.

– Qanday bo'lgan?

– Yaxshi bo'lgan! Eng qizig'i, otamning jamoasi yutqazgan! Asosiysi, o'zim maza qilib ishlaganman. O'shanda 19 yoshda edim. Shunday tarzda barchasi boshlandi. Otam shunday degandi: "Ravshan, senda nimadir bor. Yoqdimi? Demak, hakam bo'!" Kutilmagan holat tufayli hakam bo'lish istagi kuchaygan. Otam ingliz tilini o'rganishni tavsiya qilgandi. Til o'rganishni boshlaganman.

– Menimcha, siz kartochkalarni ko'p ham ko'rsatishni istamaysiz, avval futbolchilarga oddiy gap bilan tushuntirishga urinasiz. Sizning hakamligingizning siri nimada?

– Jazo emas, uni oldini olishni istayman. Kulgi bilan, yaxshi, do'stona ma'noda. O'yindagi ilk vaziyatdayoq barchaga qo'pol o'ynash to'g'ri emasligini tushuntiraman. O'yin boshida qanday harakat qilsangiz, davomi ham shunday ketadi.

– Otangiz shunday degandi: "Ravshanning shiori: doim kamtar bo'lib qolish". Ammo yulduzlar bilan ishlashda qanday qilib kamtar bo'lish mumkin, ular sizga bosim o'tkazishmaydimi?

– Maydonda psixolog bo'lish kerak. O'yinga chiqqandayoq birinchi vazifa: kim o'yinga hurmat bilan qarayapti, kim – aksincha. Shuni tushunib olish kerak. O'sha futbolchi bilan o'z vaqtida gaplashib olish kerak.

– O'zbekiston futbol bo'yicha Jahon chempionatida hali ishtirok etmadi. Siz esa JCh-2010 ochilish o'yinida, yarim finalida ishladingiz, rekordchi bo'ldingiz. Bunga qanday erishdingiz? Bu muvaffaqiyatlar qanday boshlandi?

– 2003-yilda (*Ermatov o'shanda 25 yoshda edi*) o'smirlar o'rtasidagi Jahon chempionatiga borganim – omadim. O'shangacha ingliz tilini o'rgandim, FIFA materiallarini o'rganib chiqdim. Ammo aynan o'sha

mundialda ko'p narsa o'rgandim. Shundan so'ng ishga bo'lgan munosabatim o'zgardi.

– Aynan qaysi jihatlari?

– Professionallik paydo bo'ldi. Tayyorgarlikda, o'yinlarni tahlil qilishda, tiklanishda. FIFAda eng zo'r instruktorlar bilan ishlanadi, o'shanda bu katta maktab bo'lgandi. Mashg'ulotlarning kundalik rejalarini tuzdim. Tinimsiz o'z ustimda ishladim.

– Bunday yuqori saviyaga qanday qilib tezda moslashdingiz?

– Bu seminarlarda UEFA chempionlar ligasi, Jahon chempionatida va Yevropa chempionatlarida ishlagan hakamlar ishtirok etadigan seminarlarda qatnashardim.

– To'rt yil oldin sizni hamon ota-onangiz bilan birga yashashingizni eshitib hayron qolgandim. Hozir ham ular bilan birga turasizmi?

– Ha, albatta! Hozir ham shunday. O'zbeklar hech qachon ota-onasini tashlab ketmaydi. Tarbiyamiz shunday, odatlarimizga ko'ra, o'g'illardan biri ular bilan birga turadi. Shu bois otam, onam, oilam va egizak farzandlarim birga yashaymiz.

3-topshiriq. Matn yuzasidan tuzilgan testlarning to'g'ri javobini toping.

1. Matn mazmuniga mos bo'lmagan hukmni toping.

A) Ravshan Ermatov tasodifan hakamlikka kirib kelgan.

B) Ravshan Ermatov rekordlar o'rnatib, O'zbekiston nomini dunyoga tanitmoqda.


C) Ravshan Ermatovning hakam bo'lishini otasi xohlamagan, bir necha marta qarshilik qilgan.

2. Matn mazmuniga mos bo'lgan hukmni toping.

A) Ravshan Ermatov o'yinni boshqarayotganda qo'pol o'ynaydigan futbolchilarni jazolashni yaxshi ko'radi.

B) Ravshan Ermatovning o'z ustida timsiz ishlashi, ingliz tilini o'rgangani xalqaro maydonlarda hurmat qozonishiga sabab bo'ldi.

C) Ravshan Ermatov xalqaro maydonlarda tezda moslashib keta olmadi, dastab ketma-ket xatoliklarga yo'l qo'ydi.

 **4-topshiriq. Matn yuzasidan berilgan savollarga javob bering.**

1. Yurtning asl farzandlari qanday bo'ladi? Fikringizni bayon qiling.
2. Ravshan Ermatov nima sababdan muvaffaqiyatlarga erishdi? Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. Intervyuda bergan javoblari asosida Ravshan Ermatovga baho bering.
4. Sizga Ravshan Ermatovning qaysi xislatlari yoqdi?


 **1-mashq. Berilgan so'zlar yordamida gaplarni to'ldirib ko'chiring.**

1. Ravshan Ermatovda kutilmagan _____ hakam bo'lish istagi kuchaygan. 2. Ravshan Ermatov futbolchi bo'lganida bu _____ erishmagan bo'lishi mumkin edi. 3. Ravshan Ermatov Jahon chempionatlarini eng ko'p boshqargan hakam sifatida _____ o'rnatgan. 4. Biz boshqa xalqlardan kam emasmiz. Faqat _____ o'z ustimizda ishlashimiz kerak. 5. O'zbeklarda bolalar _____ ota-onasini qarigan chog'ida tashlab ketmaydi.

(rekord, hech qachon, tasodif tufayli, muvaffaqiyatga, tinimsiz)

 **2-mashq. Undalmalarni aniqlang va tushirilgan tinish belgilarini qo'yib, gaplarni daftaringizga ko'chiring.**

1. So'zla ko'zgujon haqiqatni et bayon. 2. Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir. 3 Harakat sen ezgulikning haqiqiy qadr-qimmatini belgilaysan. 4 Kelajagimiz porloq o'rtoq Farmonov. 5. Odamlar eshitmadim demanglar.

 **3-mashq. Berilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib undalmali gaplar tuzing.**

1. Ha, _____, sen mening kelajagim, umidimsan. 2. To'xtanglar, _____, quyon sal nafasini rostlasin. 3. Ko'chada katta bayram, xalq hammasi ko'chada, nima qilib uyda o'tiribsiz, _____? 4. _____, katta oilaning qissalari tugamadi. 5. _____, mustaqil O'zbekiston, o'ttiz yillik to'ying muborak!

(aziz kitobxon, bolalar, o'g'lim, ona yurtim, usta)

BILIB OLING! Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv **tarjimayi hol** deyiladi. Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologik) asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimayi hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsin.

5-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

TARJIMAYI HOL

Men, Sobirov Nodir Nozim o'g'li, 2001-yil 27-iyunda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug'ildim. Oilada 4 kishimiz.

Otam – Sobirov Nozim viloyat yo'l qurilishi boshqarmasining bosh muhandisi bo'lib ishlaydilar.

Onam – Nomozova Nasiba 18-umumta'lim maktabida o'qituvchi bo'lib ishlaydilar.

Ukam – Sobirov Nasim 18-umumta'lim maktabining 5-sinfida o'qiydi.

1992-yildan 2002-yilgacha Buxoro shahridagi 18-umumta'lim maktabida o'qidim. Maktabda sinf devoriy gazetasi muharriri bo'ldim. Ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Bu fan bo'yicha viloyat olimpiadasida 2-o'rinni egallaganman. Tennis bo'yicha respublika musobaqalarida faxrli o'rinlarni olganman.

9-sinfni tugatib, 2018-yilda Buxoro davlat universitetining akademik litseyiga o'qishga kirdim. Hozirda ushbu akademik litseyning 2-kursida o'qiyman.

Mening turar joyim: Buxoro shahri Yangiyer ko'chasi 51-uy.

(sana)

(imzo)

N. Sobirov.



Tarjimaiy holingizni namunaga asoslanib yozing.

2-DARS



6-topshiriq. Matni tinglang va munosabat bildiring.

XX asr boshlarida o'lkamizda shunday avlodlar yetishib chiqdiki, ular millatini ma'rifatli millatlar qatorida ko'rishni xohladilar. Bu ma'rifatparvarlar yangicha hayotni, yangicha turmush tarzini, yangicha dunyoqarashni, yangicha insonlarni, yangicha o'lkani ko'rishni istadilar. O'zining bor imkoniyatlarini bu yo'lda sarfladilar. Ular millatsevar, ilmparvar jadidlar edi. Ularning aksariyati o'ziga to'q, badavlat xonadonlarning farzandlari edilar. Ular zamonaviy ilmlarni o'rganib, dunyo kezib, o'z millatining asl holini ko'rdilar, bundan orlanmadilar, buni tabiiy hol deb bilmadilar, ya'ni o'lkaning qoloqligini bilgach, aslida shunday bo'lishi kerak, deb qabul qilmadilar. Yangicha ilmlarni o'rganib, o'zga yurtlarda qolib ketmadilar. O'z millatining taraqqiy etishini xohlashdi, doim uning kelajagi uchun qayg'urishdi. Keyinchalik bu ommaviy harakatga aylandi.

Jadidlar taraqqiyotning yagona kaliti ilm-ma'rifat ekanligini anglab, yangicha usuldagi bepul ta'lim beradigan maktablar ochdilar, maktablar uchun darsliklar yozdilar, millat farzandlarini savodli qilish uchun o'z hisoblaridan mablag'larini sarfladilar. Zehnli yoshlarni zamonaviy ilmlarni egallashlari uchun Germaniya, Turkiya va Rossiyadagi dorulfununlarga jo'natishdi. Bundan tashqari, teatrlar ochib, o'qimagan kishilarning holatini ko'rsatib, xalqni ilm olishga, hunar egallashga undadilar. Shuningdek, o'z hisoblaridan yangi gazetalar ochib, xalq holatini, unda yuz berayotgan yangiliklarni e'lon qilib bordilar. Xalq zehning oshishiga, dunyoqarashini o'zgartirishga harakat qildilar. Ularning yagona maqsadi: o'lkaning taraqqiy etgan, rivojlangan yurtlar sirasidan joy egallashini ko'rish edi. Bu

mustamlaka tuzumiga yoqmadi. Jadidlarga qarshi harakatlar boshlandi. Ularning hammasi qatag'on qilindi. Vatanining, yurtining, millatining taraqqiy etishini astoydil xohlagan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sharafiddin Xo'jayev, Ubaydulla Xo'jayev, Ismoil Obidiy kabi yurtning asl farzandlari bu yo'lda molini ham, jonini ham ayamagan.

Aziz o'quvchilar, sizlar ham bu bobolarimizdan o'rnak olib, yurt taraqqiyoti uchun o'z hissangizni qo'shishga harakat qiling.

BILIB OLING! So'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsalarni bildiruvchi so'z va so'zlar birikmasi **undalma** deyiladi. Undalma gap boshida kelsa, undan so'ng, o'rtada kelsa, ikki tomondan, oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi. Undalma alohida ohang bilan ajratilib aytilsa, undalmadan keyin vergul emas, undov belgisi qo'yiladi.

Masalan: *Yurtim, sen uchun jonim fido! Sen gapimga quloq sol, o'g'lim. Ona tabiat! Sen bunchalar maftunkorsan!*



4-mashq. Gaplarda tushirib qoldirilgan undalmalarni tiklang va daftaringizga ko'chiring.

1. _____, biz kelajakda buyuk ishlarni amalga oshiramiz. 2. _____, to'qayda arslon bo'ladimi? 3. _____! Sen bunchalar go'zalsan! 4. _____, mening doimiy do'stimsan. 5. _____, sensan mening sozim. 6. _____, sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan tabriklayman. 7. Jahonga yuz tutgan _____, sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir.

(yurak / ona tabiat / O'zbekistonim / do'stim / kitob / bobo / muhtaram Umidaxon)




7-topshiriq. Quyidagi hukmlarni o'qing va matn mazmuniga mosligini aniqlang.

Agar ma'lumot matn mazmuniga mos bo'lsa, **TO'G'RI**.


Agar ma'lumot matn mazmuniga mos bo'lmasa, **NOTO'G'RI**.

Agar ma'lumot matnda umuman keltirilmagan bo'lsa, **BERILMAGAN** deb yozing.

1. Jadidlar o'z boyliklarini xalqning ma'rifatli bo'lishi uchun sarflaganlar. _
2. Jadidlar chet elda o'qib, o'sha yerda qolib ketishgan. _____
3. Jadidlar boshqa millatlardan o'z millatini ustun qo'yishgan. _____
4. Ular xalqni ilmi qilish uchun maktablar, teatrlar, gazetalar ochishgan. _____
5. Jadidlar yurtparvar, millatsevar, fidoyi bo'lishgan. _____
6. Jadidlar yurtini sevgani, xalqini ma'rifatli bo'lishini istagani uchun mustamlaka tuzum tomonidan otib o'ldirilgan. _____
7. Jadidlar yurtning asl farzandlaridir. _____

 **8-topshiriq.** Matn yuzasidan berilgan savollarga javob bering va do'stlaringiz bilan fikr almashing.

1. Jadidlarning asl maqsadi nima bo'lgan?
2. Jadidlar qatag'on qilinmaganda nimalar bo'lishi mumkin edi?
3. Yurtning asl farzandlari kimlar ekan?
4. Siz yurtning asl farzandi bo'lish uchun nima qilyapsiz?
5. Hozir ham boy-badavlat insonlar ko'p, ammo ular nega yoshlarimiz chet elda o'qib, zamonaviy ilmlarni o'rganib kelishi uchun grantlar ajratishmaydi?

 **5-mashq.** *Yurtim, onajon, maktab, hayot, gullar* kabi so'zlarni undalmaga aylantirib gaplar tuzing.

  **6-mashq.** Quyidagi maqollarni daftaringizga yozing va mazmunini izohlang.

1. Yaxshi yigit yurt tuzar, yomon yigit yurt buzar.
2. El bor bo'lsa, er xor bo'lmas, er bor bo'lsa, el xor bo'lmas.
3. O'z yurtning qadri o'zga yurtda bilinar.

 **“Yurtning asl o'g'lonlari”** mavzusida kichik matn tuzing.

1-DARS

5-MAVZU. ORZUMDAGI KASB

(Monologik matn)



1-topshiriq. Matnni tinglang. Munosabat bildiring.

XX asrning boshlarida bir shotlandiyalik fermer uyiga qaytar ekan, botqoqlik bo'lgan bir yerning yonidan o'tdi. Birdan o'sha tarafdin yordam so'rab baqirayotgan ovozni eshitdi. Fermer yordamga yugurdi va u yerda botqoqlik o'zining iflos qa'riga tortayotgan bir bolani ko'rdi. Bola tirishib, qo'rquvdan baqirar edi. Fermer daraxtning qalin bir shoxini sindirib oldi. Xaloskor ehtiyotlik bilan shoxni cho'kayotgan bolaga uzatdi. Bola uning yordamida xavfsiz yerga chiqib oldi. Uni kuchli titroq bosgan edi. U uzoq vaqt ko'z yoshlarini to'xtata olmadi, lekin asosiysi, u qutqarilgan edi!

– Yur men bilan, uyimga olib boraman, – taklif qildi fermer, – sen o'zingga kelib, biroz isinib olishing lozim.

– Yo'q-yo'q, meni otam kutyapti. U juda xavotir olayotgan bo'lsa kerak, – bola o'z xaloskorining ko'zlariga biroz tikilib turdi-da, yugurganicha uyi tomon ketdi...

Ertalab fermer uyining oldiga bir izvosh kelib to'xtaganini ko'rdi. Izvoshdan qimmatbaho kiyimlar kiygan bir janob tushdi va so'radi:

– Mening o'g'limni hayotini kecha siz saqlab qolgan edingizmi?

– Ha, men, – javob berdi fermer.

– Men sizga qancha to'lashim kerak?

– Meni xafa qilyapsiz, janob. Siz mendan hech narsa qarz emassiz.

Men har bir inson qilishi kerak bo'lgan ishni qildim.

Shu vaqt ichkaridan o'g'ilchasi chiqib uning yelkasiga osildi.

– Bu sizning o'g'lingizmi? – so'radi boyvachcha mehmon.

– Ha, – g'urur bilan javob berdi fermer o'g'lining boshini silagancha.

– Keling, bunday qilamiz. Men sizning o'g'lingizni o'zim bilan Londonga olib boraman. Uning ta'lim olishi uchun barcha xarajatlarni to'layman.

Oradan yillar o'tdi. Fermerning o'g'li maktabni, keyin tibbiyot universitetini tugatdi. Tez orada uning nomi penitsillin kashfiyotchisi sifatida dunyoga tanildi. Uning ismi Aleksandr Fleming edi.

Urush arafasida Londonning boylar uchun tashkil qilingan shifoxonasiga o'pka shamollashi tashxisi bilan xuddi o'sha janobning o'g'lini keltirishdi. Bu safar Aleksandr Fleming tomonidan kashf qilingan penitsillin bolani qutqardi. Flemingga ta'lim olishga yordam bergan janobning ismi Rendolf Cherchill – Angliyaning bosh vaziri edi. Uning o'g'lini esa Uinston Cherchill deyishardi.

Uinston Cherchill: “Sen tomondan qilingan narsa, albatta, senga qaytadi,” – degan.



2-topshiriq. Matnni o'qing. Matndagi ajratilgan so'zlarga izoh bering.

Har bir kasb egasi kasbiga bo'lgan **fidoyiligi, mehnatsevarligi, kamtarligi, sadoqati bilan hurmatga erishadi**. Yurtimizda ham kasbi bilan **tanilgan** insonlar juda ko'p. Bular: novvoylar, haydovchilar, ichki ishlar xodimlari, shifokorlar va, albatta, o'qituvchilardir. Bu kasb egalari xalqimizning **olqishlariga sazovor** bo'lishgan.

Inson o'z vazifalarini vijdonan bajarsa, u xalq orasida ulug'lanadi, qadrlanadi. Shunday ekan, kishi tanlagan kasbi va hunari orqali **baxtini** topadi.



1-mashq. Savollar asosida monolog yozing.

1. Novvoylar, haydovchilar, ichki ishlar xodimlari, shifokorlar va o'qituvchilarning kasbiga bo'lgan sadoqatini nimalarda ko'rasiz? Izohlab yozing.
2. Hayotda maqsadsiz, hunarsiz insonlarni ko'rganmisiz? Ularning hayotini muvaffaqiyatga erishgan insonlar hayoti bilan taqqoslab yozing.
3. Siz orzuingizdagi kasbni tanladingizmi? Nima uchun shu kasbni tanladingiz? 3 ta sababini yozing.



3- topshiriq. Suhbat matnini rollarga bo'lib o'qing.

Men har kuni ertalab mahallamizdagi novvoyxonadan nonushtaga issiq, so'lqildoq non olib kelaman. Ba'zan ularning ishlarini kuzataman va ularga meni qiziqtirgan savollarni beraman.

- Xamirni qanday tayyorlaysiz?
- Xamir qilish ishimizning asosi hisoblanadi. Uni yaxshilab mushtlaymiz.
- Xamirga nimalar qo‘shasiz? Chunki siz pishirgan nonlar juda mazali.
- Xohlasangiz xamir qilish jarayonini kuzatishingiz mumkin.
- Rahmat, albatta, xamirni tayyorlash jarayonini kuzatgani kelaman. Tandir juda issiq, qanday chidaysiz?
- Kasbning yengili yo‘q. Shu kasbga mehr qo‘yganim uchun tandirning qaynoqligi menga bilinmaydi.

Ularga rahmat aytib, yo‘lda kelar ekanman: “Men ham novvoy bo‘laman, yangi texnikalarni chet eldan olib kelib, sex ochaman, ishchi o‘rinlari yarataman. Xalqimning dasturxoniga turli milliy o‘zbek nonlarini, kulchalarini taqdim etaman,” – deb xayolimdan o‘tkazdim.



2-mashq. Ichki monologda aytilgan gapni daftaringizga ko‘chiring.

- I. Maktab direktori Adiba Alisherovna maktab hovlisini kuzatar ekan, “Yosh botaniklar bog‘i”ga yana gullar va manzarali daraxtlar o‘tqazishni, qishning qor va yomg‘irlarida o‘quvchilar sirpanib ketmasligi uchun hovlidagi zinalarga soyabon o‘rnatishni, daraxtning ortiqcha shoxlarini kesishni, yo‘laklardagi gultuvaklarga gullar o‘tqazish kerakligini o‘ziga o‘zi gapirardi.
- II. O‘qituvchi o‘quvchilarga: “Uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tib, talabalik “qasri” oldida turibsiz. Qarshingizda eshik ochilsa, sizni “oltin davr” qarshi oladi. Biroq bu eshikni ochish uchun tutqichdan tortish yoki “sim-sim” deyish kamlik qiladi. Ko‘p o‘qing, olgan bilimlaringiz tufayli ichkariga kirasiz va talaba bo‘lasiz”, – dedi.

4-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Tarjimayi hol ko‘pchilikka rezyume nomi bilan ham tanish. Rezyumeda quyidagilarga e‘tibor berilishi kerak:

1. **Lavozim** – agar tarjimayi hol qanday tuzilishini bilmasangiz, qaysi lavozimga da‘vo qilayotganligingizni ko‘rsating. Masalan, buxgalter yoki PHP dasturchi.

2. **Bog'lanish uchun ma'lumotlar** – yashash manzilini ko'rsatish shart emas, lekin elektron pochta va telefon raqamni, albatta, ko'rsatish kerak. Yashaydigan shahar va qancha maoshga da'vo qilayotganingizni ham ko'rsatishingiz mumkin.
3. **Ish tajribasi** – dastavval so'nggi ish joyingiz bilan boshlab, birinchi ish joyingiz bilan yakunlash kerak. Ish joylarida qanday lavozimda ish yuritganingiz ham muhim. Yutuqlaringizni ham kiritishingiz mumkin.
4. **Ma'lumoti** – oliy, o'rta yoki o'rta maxsus.
5. **Kasbiy mahorat va ko'nikmalar** – nimalar qo'lingizdan keladi, qaysi dasturlar bilan ishlashni bilasiz, shular haqida yozish kerak. Qo'shimcha tillarni bilsangiz ularni ham kiritish mumkin.
6. **Tavsiyanomalar** – agar oldingi ishingizdan biron kim sizni tavsiya eta oladigan bo'lsa, ular bilan bog'lanish uchun ma'lumotlarni kiritish.
7. **Qo'shimcha ma'lumotlar** – so'z yakunida o'zingiz haqingizda ma'lumot keltirib o'ting. Xarakteringiz, javobgarlikni ola bilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, kichik narsalarga ham e'tibor berish kabilar.



Topshiriq asosida o'zingiz haqingizda ma'lumot yozing.

2-DARS



5-topshiriq. Tinglang. Eshitganingizni gapirib bering.

MUVAFFAQIYAT SIRI

Bir yigit Suqrotdan muvaffaqiyat siri nimada ekanligini so'radi. Suqrot unga ertasi kuni tongda daryo bo'yiga kelishini, savoliga o'sha yerda javob berishini aytdi.

Ertasiga ertalab yigit daryo bo'yiga keldi. Suqrot undan daryoga tushishni so'radi. Birga daryoga tushdilar. Suv bo'ynilariga yetganda,

kutilmaganda Suqrot yigitning boshini suvga tiqdi. Yigit suvdan chiqishga qanchalik harakat qilmasin, Suqrot kuchli edi. Suqrot yigitni ko'karib ketgunicha suvda ushlab turdi, keyin suvdan chiqarib oldi. Yigit chuqur nafas oldi. Suqrot so'radi: "Boshingni suvda tutib turgan paytim eng ko'p nimani xohlading?" Yigit javob berdi: "Havo". Suqrot dedi: "Muvaffaqiyatning siri mana shunda. Qachonki sen muvaffaqiyatni suv tubida havoni xohlaganingchalik xohlasang, shunda unga erishasan. Bundan boshqa siri yo'q".



3-mashq. Matn asosida savollarga javob yozing.

1. Suqrot nima uchun shunday yo'lni tanladi? Sababini yozing.
2. Maqsadga erishishning yana qanday yo'llarini bilasiz? Ikkita yo'lni yozing.
3. Suqrotning yigitga aytgan gaplarini siz qanday tushundingiz?



6-topshiriq. Tinglang. Suhbat asosida dialog tuzing.

- Anvar, sen qaysi kasbni egallamoqchisan?
- Men oshpaz bo'lmoqchiman.
- Erkak kishining oshpazlik qilishi juda g'alati-ku.
- Yo'q. Mashhur oshpaz, aynan, erkak kishilardan chiqadi.
- Sen taomlarning retseptini yig'ayapsanmi?
- Ha, mening taomlar haqida katta kolleksiyam bor.
- Kelajakda katta oshpaz bo'lar ekansan-da, do'stim.
- Albatta, orzum o'z oshxonamni tashkil etish.
- Kelgusida shaxsiy oshxonang bo'lishiga ishonaman.
- Sen ham yaxshi kasb egasi bo'lishingga ishonaman.



“Men ... bo'lishni orzu qilaman” mavzusida fikringizni bayon qiling.

1-DARS

6-MAVZU. HUNARNING SHAROFATI (Dialogik matn)



1-topshiriq. Tinglang va topshiriqlarni bajaring.

TOMS

Amerikalik yigit Bleyk Maykovskiy 2004-yilda otasidan qolgan kattagina merosga ega bo'ladi. Boshida u pullarini qanday qilib ko'paytirish haqida o'ylaydi, ammo bir qarorga kela olmaydi. 2005-yilda Argentinada o'tkazilayotgan avtomobil musobaqasiga boradi. Chunki u bu sport turini yaxshi ko'rar edi. U yerga borgach, odamlarning kambag'alligini ko'radi. Xususan, ko'p bolalar yalangoyoq edi, chunki ularning oyoq kiyim olishga pullari yo'q edi. Bleyk u yerda oyoq kiyim ishlab chiqaradigan shirkat ochishga ahd qiladi. Uning niyati tijorat bilan birga, xayriya ishlarini yo'lga qo'yish edi. U oyoq kiyim ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan "Toms" shirkatiga asos soladi. Bu shirkat paypoqsiz kiyiladigan yengil sport oyoq kiyimlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi.

Xayriya ishini esa sotilgan mahsulotga bog'liq qilib qo'yadi. Ya'ni bitta sotilsa, bitta sovg'a qilinadigan bo'ladi. Shirkatning rivojlanishiga ikkita sabab bor edi:

1. Bu oyoq kiyimlarning yaxshiligi va yengilligi.
2. Kishilarning bu xayrli ishni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan rag'bat.

Shirkat bugun ham o'sha tadbirkorligini davom ettiryapti. Har bir sotilgan mahsulot evaziga bitta oyoq kiyim ehson qilinadi.

Yaxshilikni kim qilishidan qat'i nazar, u zoye ketmaydi. Bugun "Toms" shirkati olamga mashhur. Bleyk Maykovskiy esa Amerikada eng badavlat kishilardan biri.


Insonning daromad kelib turadigan manba haqida o'ylashi yaxshi, albatta. Ammo boy bo'lishdan avval inson bo'lish haqida tafakkur qilishi undan ham yaxshidir.


 **2-topshiriq. Matn haqida fikringizni savollar asosida bayon qiling.**

1. Bleyk Maykovskiy o'rnida siz bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?
2. Nima uchun u aynan oyoq kiyim ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi?
3. Tadbirkorlik va xayriya so'zlarining bir-biriga bog'liqligi nimada deb o'ylaysiz?
4. Bleyk Maykovskiy Amerikada eng badavlat kishilardan biri bo'lishining sabablarini sanab o'ting.

 **1-mashq. Savolni o'qing. Savol asosida dialogik matn tuzing.**

Tirikchilik qilish uchun hunar o'rganish yoki biror narsa yasab sotish uchun ustaga shogird tushish shartmi, yoki kitob, video, internet orqali o'rganish ham mumkinmi?

 **4-topshiriq. Hunar o'rganishning sirlari haqida monologik matn tuzing.**

 **2-mashq. Savollarga yozma javob bering va izohlang.**

1. Odamlar bilan qanday tez til topishish mumkin?
2. Notanish odamlarga duch kelganda so'zni qanday boshlab, qanday yakunlashni ma'qul ko'rasiz?
3. Yaqinlaringiz bilan do'stlaringiz sizni tushuna oladimi?
4. Sizni hech kim tushunmagan paytda o'zingizni qanday his qilasiz?

 **5-topshiriq. Maqollarning ma'nosini tushuntiring.**

1. Aqllining so'zi qisqa, aytgani esa yo'llanma. (*Xalq maqoli*)
2. Aqlli o'rnida so'zlaydi-da, javobini kutadi. (*S.Saroyi*)

 **“Mohir kasb egalari” mavzusida matn yarating.**

2-DARS



6-topshiriq. Tinglang va tayanch so'zlarni yozing.

Bir qishloqda butun olamga dong'i ketgan donishmand yashar ekan. Aka-uka uning yoniga kelib, shogirdlikka olishini so'rashibdi. Qariya faqat bir kishini olishini aytibdi va o'smirlarni sinamoqchi bo'libdi. Mo'ysafid aka-ukalarning har biriga bittadan topshiriq beribdi. Ular topshiriqlarni sidqidildan bajarishga kirishibdilar. Biroz vaqt o'tgach donishmand yigitlarning yoniga kelibdi va uyiga suv olib kelishlarini so'rabdi. Aka birdan sakrab turib, suvga ketibdi. Uka esa birinchi topshiriqni bajarishni davom ettiribdi. Aka suvni olib kelib, endi avvalgi topshirig'ini bajarishga kirishgan ekan, chol ikkalasidan tomni ta'mirlashni iltimos qilibdi. Aka suv to'la chelakni qo'yib, tomga chiqib ketibdi. Uka esa joyidan jilmabdi. Yana bir muddatdan keyin ayyor chol aka-ukalarga yog'och to'siqni tuzatishni buyuribdi. Aka tomdan tushib, to'siqqa qarab ketibdi. Qariya yana tomdan shikoyat qilibdi. Aka holdan toyib, kuchsiz yerga o'tirib qolibdi. Uka esa birinchi topshirig'ini tugatibdi, keyin tomga chiqib, uni ham tuzatibdi. Donishmand miyig'ida kulib qo'yibdi. U shogirdlikka ukasini olib qolibdi va o'z tanlovini shunday izohlabdi:

“Sen maqsad sari intilishni va o'z hayot yo'lingdagi muhim jihatlarni tanlashni bilasan. Akang esa boshqalarda yaxshi taassurot qoldirish maqsadida barcha ishga birdaniga kirishadi, o'z kuchi va vaqtni maqsadli taqsimlay olmaydi”.



7-topshiriq. Matn yuzasidan savollarga javob bering.

1. Aka-uka kimdan shogirdlikka olishini so'rabdi?
2. Donishmand bolalarni qanday sinovdan o'tkazibdi?
3. Nima uchun uka sinovdan muvaffaqiyatli o'tibdi?
4. Hikoyadan o'zingizga qanday xulosa chiqardingiz?



2-mashq. Matnda tushirib qoldirilgan so'zlarni o'rniga qo'yib ko'chiring.

Hakimlar ... kishini “qanotsiz qush” deb nomlaganlar. Haqiqatan ham ... insonga mehribon do‘st, shafqatli yor, fayz yetkazuvchi chopag‘on ot, ko‘kka ko‘targuvchi mustahkam qanotdirki, u o‘z sohibini tezgina rohat va e‘tibor manziliga ..., tama olovidan qutqarib, omonda saqlaydi. Hunarni dunyoda faqat mol-u ..., undan o‘z maishati uchun foydalanish maqsadidagina o‘rganilmaydi. Balki kasb-u hunar egasi o‘z mehnati bilan ... ravnaqiga hissa qo‘shmog‘i, ko‘pchilikka yordam berib, ularni xursand qilmog‘i lozim.

Foydalanish uchun so‘zlar: *hunarsiz, hunar yetkazadi, pul g‘amlash, el-yurt.*



8- topshiriq. Suhbat matnini o‘qing.

– Ustoz, meni bir savol doim qiziqtirib keladi. Biz ko‘pincha biror hodisaning tarixi haqida gapirsak, “Uning vatani falon joy, unga o‘sha yerda asos solingan”, deymiz. Ayting-chi, jurnalistika qachon, qayerda paydo bo‘lgan, uning vatani qayer?

– Jurnalistika, aniqrog‘i, IV asrda logann Gutenberg tomonidan bosma mashinaning ixtiro qilinishi bilan bog‘liq. Chunki bosma mashina ko‘plab nusxada gazeta yoki boshqa nashrlarning chop etilishiga imkon yaratgan.

– Gazetalar qanday vazifani bajargan?

– Gazetalarning asosiy vazifasi – axborot tarqatishdan iborat.

– Qadimda axborotlar qanday tarqatilgan?

– Qadimda Sharqda ham, G‘arbda ham taxtalarga, ganchga, boshqa narsalarga yozilgan axborot Xitoy, Yaponiya kabi Sharq mamlakatlarida, G‘arbning Rim kabi shaharlarida eramizgacha bo‘lgan davrda tarqatilgani ma‘lum.

– Kunlik yangiliklarni qanday xalqqa yetkazishgan?

– Vatanimiz hududida yangiliklar xalqqa qadimdan jarchilar vositasida yetkazilgan.

– Bizning o‘lkamizda bosma matbuot qachon yuzaga kelgan?

– Bizning o‘lkamizda bosma matbuot 1870-yili yuzaga kelgan. “Turkiston viloyatining gazetasi” o‘lkada paydo bo‘lgan ilk gazeta edi. 1906- yil 27 (14)-iyunda dunyo yuzini ko‘rgan “Taraqqiy” gazetasi esa ilk milliy gazetamiz hisoblanadi.

- Qanday qilib mohir jurnalist bo'lish mumkin?
- Chinakam jurnalist bo'lish, eng avvalo, shaxsning o'ziga bog'liq, qalam sohibi shaxsiy manfaatidan ko'ra xalq, millat manfaatini ustun qo'ya bilishi lozim. Bu kasb biroz bo'lsa-da, fidoyilikni, jasoratni talab qiladi. Kim buning uddasidan chiqolsa, uni haqiqiy jurnalist deyish mumkin.
- Ustoz, “Men el-yurtimga xizmat qilaman!” degan yosh jurnalistlarga qanday tilaklaringiz bor?
- Agar yosh jurnalist chindan ham el-yurt, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, men unga “Tilagingizga yeting!” deyman. Sharafli faoliyati bilan elning ishonchini oqlagan ustoz jurnalistlarning hayot yo'li ular uchun ibrat maktabidir.



9-topshiriq. Matnni o'qing. Asosiy ma'lumotlarni saqlagan holda matnni qisqartirib gapiring.

Jurnalistika – ijtimoiy faoliyat turi. Bu faoliyat egalari (jurnalistlar) ijtimoiy dolzarb axborotlarni to'plash, tahlil qilish va ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniya, axborot agentliklari va boshqalar.) orqali tarqatish bilan shug'ullanadi. Jurnalistika ommaviy targ'ibot va tashviqot shakllaridan biri. Jurnalistikaning xususiyati, maqsadi jamiyatning ijtimoiy tabiatiga bog'liq. Jurnalistika atamasi dastlab jurnallar majmuyiga, keyinchalik barcha davriy nashrlarga nisbatan qo'llanilgan. Endilikda jurnalistika iborasi jurnalistik faoliyat mahsulini, shu bilan bog'liq kasblar majmuyini, shuningdek, shu sohaga oid ta'limni va fan tarmog'ini ham anglatadi. Jurnalistik faoliyat tarkibiga matbuot, radio, televideniya, axborot agentliklari, hujjatli kino va boshqalar kiradi.

Jurnalistika tizimidagi axborot vositalari ommaning kundalik dolzarb ijtimoiy va maxsus axborotga bo'lgan ehtiyojini qondrishda, asosan, publitsistikaga tayanadi, shuningdek, muhim ijtimoiy masalalarni talqin qiluvchi ilmiy, badiiy va b. asarlardan ham foydalanadi. Jurnalistika tizimidagi axborot vositalari o'z faoliyatida ma'lum davriylikka va tezkorlikka amal qiladi.

Hozirgi davr jurnalistikasi dastlab XVII asr boshidagi ilk davriy bosma nashrlar qiyofasida yuzaga kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshida fotografiya hamda kinematografiyaning kashf qilinishi

tufayli foto va kinojurnalistika tashkil topdi. XX asrning 20-yillaridan e'tiboran radiotexnika yutuqlari asosida radiojurnalistika taraqqiy qila boshladi, 40-yillarda esa telejurnalistika maydonga keldi.

Ommaviy axborotning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan umumiy saviyasi va kasbiy mahorati yuksak jurnalistlarga ehtiyoj kuchaya bordi. Ana shu ehtiyoj taqozosi turli mamlakatlarda maxsus jurnalistika ta'limini yuzaga keltirdi.

O'zbekistonda jurnalistika XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Uning tarixi Toshkentda chiqarilgan "Turkiston viloyatining gazetasi" kabi rasmiy davriy nashrlardan boshlanadi. XX asrning birinchi va ikkinchi o'n yilligida O'zbekistonda asosiy e'tiborini milliy taraqqiyotni ta'minlashga qodir ma'rifatli insonlarni tarbiyalashga yo'naltirgan xususiy milliy gazeta va jurnallar ("Taraqqiy", "Xurshid", "Sadosi Turkiston", "Samarqand", "Oyina" va boshqalar.) ham faoliyat ko'rsatdi.



"Men jurnalist bo'lsam..." mavzusida matn tuzing.

1-DARS

7-MAVZU. KINO TADBIRKORLIGI **(Matn bilan ishlash)**



1-topshiriq. Tinglang va topshiriqlarni bajaring.

"O'zbekfilm" – badiiy filmlar ishlab chiqaruvchi eng eski va eng katta o'zbek kinostudiyasi. Studiyaga 1925-yilda asos solingan. Uning ilk nomi "Sharq yulduzi" bo'lgan. 1936-yil "O'zbekfilm" deb nomlangan. Kinostudiya shu kungacha 400 dan ortiq to'la metrajli va 100 dan oshiq multiplikatsiya qilingan film chiqargan. Studiya Shayxontohurdagi Eshonqul madrasasi binosida joylashgan. 20-yillarda "Masjid gumbazlari ostida", "Soyabon arava", "Ravot qashqirlari", "Chodira" kabi filmlar ishlangan. 1925–26-yillar mobaynida 20 dan ortiq to'la, 30 dan ortiq qisqa metrajli xronikal filmlar yaratilgan.

1930-yillarda "Yuksalish", "Ramazon" (N. G'aniyev), "Tong oldidan" (S. Xo'jayev), "Qilich" (Y. A'zamov) filmlari ishlandi. 1939-yil kinostudiyaga

“Toshkent kinostudiyasi” nomi berildi. Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkentga evakuatsiya (ko‘chirib keltirilgan) qilingan Ukraina, Belorussiya, “Mosfilm”, “Lenfilm” kinostudiyalari “Birlashgan Toshkent kinostudiyasi” (titrda “Toshkent kinostudiyasi” deb yozilgan) nomi bilan yuritilgan.

Urushdan keyingi yillar o‘zbek xalqi madaniyatining yutug‘i bo‘lgan “Tohir va Zuhra” (1945), “Nasriddinning sarguzashtlari” (1946, N. G‘aniyev), “Alisher Navoiy” (1947, K. Yormatov) filmlari ekranga chiqdi.

“Qutlug‘ qon” (L. Fayziyev), “Abu Ali ibn Sino” (K. Yormatov) singari filmlar 52-yillarda yaratildi. 1955-yili “Amirlikning yemirilishi” nomli birinchi rangli badiiy film (L. Fayziyev, V. Basov) ekranga chiqdi. 1958-yilda yana “O‘zbekfilm” nomi qaytib qo‘yilgan. 1959-yilda Chilonzorda qurilgan yangi binoga ko‘chib o‘tgan.

60-yillar kinostudiyada mavzu jihatdan boy, asosiy qahramoni yoshlar bo‘lgan filmlar ustunlik qildi. “Mahallada duv-duv gap”, “Sen yetim emassan”, “Toshkent – non shahri”, “Abu Rayhon Beruniy” (Sh. Abbosov), “26-si otilmasin”, “41-yil olmalari” (R. Botirov), “General Rahimov” (Z. Sobitov), “Oy borib, omon qayt” (H. Fayziyev), “Ulug‘bek yulduzi” (L. Fayziyev), “O‘tkan kunlar” (Y. A‘zamov) va boshqa filmlar suratga olingan. Kishilar xarakteri, o‘zaro munosabatlari, turmush tarzi va mehnatini ko‘rsatuvchi filmlar yaratish kinostudiya ijodkorlari oldidagi asosiy vazifaga aylandi. Natijada “Seni kutamiz, yigit” (R. Botirov), “Nodirabegim” (K. Yormatov), “Shum bola” (D. Salimov) kabi filmlar ekranga chiqdi.

80-yillarning oxiri, “qayta qurish” yillari “O‘zbekfilm”da yangi avlod rejissorlari ish boshladi. “Alvido, g‘o‘r yoshligim” (E. Eshmuhamedov), “Klinika” (R. Malikov), “Bo‘rilar” (S. Nazarmuhamedov), “Siz kimsiz?” (J. Fayziyev), “Soldat ertagi” (Z. Musoqov) nomli shaxsga sig‘inish sharoitidagi qahramonlar hayoti aks etgan filmlar suratga olingan.

Mustaqillikdan so‘ng “O‘zbekfilm”ning yangi tarixi boshlandi. Film mazmuni, qahramonlari va uslubida milliylik kuchaydi. “Voiz” (Y. Roziqov), “Yolg‘iz yodgorim” (S. Nazarmuhamedov), “Chimildiq” (M. Abzalov), “Yodgor” (X. Nasimov), “Qor ustidagi lola” (E. To‘ychiyev, A. Shaxobiddinov), “Alpomish” (H. Fayziyev), “Osmondagi bolalar”, “Osmondagi bolalar-2” (Z. Musoqov), “Qismat” (A. Akbarxo‘jayev, A. Ismoilov) va boshqa shu kabi filmlar keyingi yillar mahsulidir.

 **2-topshiriq.** Matndan foydalanib rejissorlar va ular yaratgan filmlar nomini namunada ko'rsatilgandek qilib daftaringizga ko'chiring.

Rejissorlar nomi	Filmlar nomi
K.Yormatov, N.G'aniyev	"Biz yengamiz"

 **3-topshiriq.** Matnni o'qing. Ona tilingizga tarjima qiling.

Rossiyaning kinematografiyaga bag'ishlangan eng yirik portal "Kino Poisk" o'tkazgan so'rov natijalariga ko'ra, o'zbek badiiy filmlari dunyodagi eng yaxshi filmlar deb tan olingan.

O'zbekistonlik kino ijodkorlarining asarlari portal reytingida dunyo kinosanoati gigantlari bo'lgan AQSh va Hindistonni ortda qoldirgan .

"Kino Poisk" foydalanuvchilari O'zbekistonda ishlab chiqarilgan filmlarga bergan baho 7,4 ballni tashkil etgan.

Ikkinchi o'rinni 7,2 ball bilan Hindiston, uchinchi o'rinni 6,5 ball bilan Rossiya kinolari egallagan.

Foydalanuvchilar Gollivud filmlarini to'rtinchi o'ringa munosib ko'rganlar.



Kinematografiya haqida yana nimalarni bilasiz? Kino olamining salbiy va ijobiy tomonlari haqida o'z tasavvurlaringizni yozing.

Ijobiy	Salbiy

2-DARS



4-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Hindiston dunyoning eng yirik kinosanoatlaridan biriga egalik qiluvchi mamlakat hisoblanadi. U tashkil etilganiga 100 yildan oshgan. Bu muddat ichida Bollivud ko'plab rekord natijalarga erishgan. "Bollivoodtime.ru" Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan hind filmlari haqida ma'lumot beradi.

Hindiston kinosanoati – bir yil ichida eng ko‘p kino ishlab chiqargani uchun rekord o‘rnatgan.

Hindistonda bir yilda 800 dan 1000 tagacha badiiy filmlar suratga olinadi. Bu Gollivudda suratga olinadigan filmlardan ikki baravar ko‘p degani.

2009-yilda Hindiston ijodkorlari tomonidan 24 ta tilda 1288 ta film taqdim etilgan. Ushbu ko‘rsatkich tufayli Hindiston kinosanoati Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Hollywood (talaffuzi: Hollivud) Amerika Qo‘shma Shtatlarining Kaliforniya shtatidagi Los-Anjeles shahri markaziy hududida joylashgan bo‘lib, AQSh kinosanoati uyi hisoblanadi. Shuningdek, tarixiy studiyalarning bir nechtasi bilan mashhurdir.

Hollywood 1903-yilda o‘z shahrini tashkil qildi. 1910-yilda esa Los-Anjeles shahri bilan birlashtirilib, ko‘p o‘tmay mashhur kinosanoati paydo bo‘ldi va Hollywood dunyodagi eng taniqli kinosanoatga aylandi.

1853-yilda Nopalera (Nopal maydonida) noma‘lum bo‘lgan Meksikaning Nopal kaktusiga nom berilgan. 1870-yilga kelib, qishloq xo‘jaligi birlashmasi rivojlandi. Bu hudud Santa-Monika tog‘larida shimoldan o‘tib, Sahuenga vodiysi deb nomlanadi.



5-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek kinosan’ati ustalaridan kimlarni bilasiz?
2. O‘zbekfilmning oltin fondidan o‘rin olgan filmlar ro‘yxatini tuzing.
3. Bugungi yosh kinoaktyorlardan kimlarning ijodini yuqori baholaysiz?
4. Bugungi o‘zbek kinosan’atiga munosabat bildiring.



6-topshiriq. Suhbatni rollarga bo‘lib o‘qing.

- Mumkinmi, savol bersam, siz qaysi filmlarni tomosha qilasiz?
- Marhamat, sizga bajon-u dil javob beraman. Biz oilamiz bilan o‘zbek va Gollivud filmlarini sevib tomosha qilamiz.
- To‘g‘ri, undagi qiziqarli ssenariylar, rejissorlar tasavvuri va aktyorlar mahorati bizni ko‘p paytlardan buyon o‘ziga rom etadi.

- Siz Gollivud belgisi nechinchi yilda o‘rnatilganini bilasizmi?
- Ha. Butun dunyoga mashhur Gollivud belgisi 1923-yil o‘rnatilgan.
- Uni o‘rnatishdan ko‘zlangan maqsad nima edi?
- Maqsad Los-Anjelesdagi yangi turar joylarni reklama qilish edi.
- “Shon-shuhrat xiyoboni” haqida eshitganmisiz?
- Ha, eshitganman, 1960-yilda “Shon-shuhrat xiyoboni”ga ilk yulduzni o‘rnatishgan, unda Joan Vudvord ismi yozilgan.
- Shu kungacha yana bu xiyobonga yulduzlar o‘rnatilganmi?
- Ha, albatta, “Shon-shuhrat xiyoboni”da 2600ga yaqin yulduz bor. Ular kino, teatr, radio, multfilm, ovoz yozish va televideniyaning rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun taqdim etilgan.
- Savollarimga javob berganingiz uchun rahmat. Sog‘ bo‘ling.
- Sizga yordamim tekkandan xursandman. Siz ham salomat bo‘ling.



“Men rejissor bo‘lsam...”, “Men yaratmoqchi bo‘lgan obraz” mavzularidan biriga matn tuzing.

1-DARS

8-MAVZU. QARDOSH XALQLAR DO‘STLIGI (Iboralar)



1-topshiriq. Matnni tinglang va o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nosini izohlang.

O‘zbekiston diyorida qadimdan turli millat vakillari, **etnik qatlamlar**, xilma-xil e‘tiqod va **dunyoqarashlar** yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko‘chib kelib, o‘rnashib qolgan emas. Bu zamin ota-bobolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makondir. Bu zamin sharq va g‘arbning, shimol va janubning qadim o‘tmish va buyuk kelajakning **tutashgan joyi**. **Markaziy Osiyoning yuragi**, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan **sivilizatsiya** ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an‘analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni “falsafiy tafakkur beshigi”, deb bekorga ta‘riflamagan.

O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-umidlari, oliyjanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Millatlararo totuvlik – umumbashariy qadriyat, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq, davlatlar taraqqiyotini belgilaydi. Shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, xalqaro maydondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liq. Xalqimizning **“Qo'shning tinch – sen tinch”** degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan xalqlar orasida **tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli** munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Qayerdagi millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati tushunib yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi. Ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim **mintaqalarida** sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

(U. Lafasov)



2-topshiriq. Matndan foydalanib savollarga javob bering.

1. O'zbekistonda kimlar yonma-yon yashashgan?
2. Jahonni hayratga soluvchi sivilizatsiya qayerda vujudga kelgan?
3. Faylasuf Geraklit bu yurtga qanday ta'rif bergan?
4. Tinchlik va barqarorlikning kafolatiga nima xizmat qiladi?
5. “Qo'shning tinch – sen tinch” degan maqolda qanday haqiqat nazarda tutilgan?

BILIB OLING! Iboraga bir so'z sifatida qaraladi va lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so'zlar kabi ma'no ifodalaydi. Masalan: *Kapalagi uchib ketdi – cho'chidi, tosh otmoq – tuhmat qilmoq.*



1-mashq. Berilgan gaplarni daftaringizga yozing. Iboralarni topib, tagiga chizing.

1. O'qituvchi bu bolani yaxshi ko'rganidan sho'xliklariga ko'z yumardi.
2. Asqar bor ovozda baqirib, ko'chani boshiga ko'tardi.
3. Aqlli, a'lochi qiz bo'lgani uchun Saidani sinfdoshlari boshlariga ko'tarishardi.
4. Botir tegirmonga tushsa ham butun chiqadigan yigitlardan edi.
5. Bola har qancha isbotlar bo'lishiga qaramasdan, bu safar suvdan quruq chiqdi.
6. Kampir Qimmatni ko'kka ko'tarib maqtar, Zumradni yerga urib kamsitar edi.



2-mashq. Matndan foydalanib gaplarning davomini toping va daftaringizga ko'chiring.

1. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko'chib kelib, 2. ..., shimol va janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi.
3. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni ..., deb bekorga ta'riflamagan.
4. ... – umumbashariy qadriyat, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa, davlatlar taraqqiyotini belgilaydi.
5. Millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, 6. Qayerdagi millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati tushunib yetilmasa, ..., muammolar vujudga keladi.



Xalqlar do'stligi haqida hikoya qilib bering.

2-DARS



3-topshiriq. Suhbatni rollarga bo'lib o'qing.

- Insonga berilgan eng buyuk ne'mat nima?
- Insonga berilgan eng buyuk ne'mat – bu hayot.
- Insoniyatning intilib kelgan eng ulug' maqsadlari nima?
- Insoniyatning intilib kelgan eng ulug' maqsadlari tinchlik va totuvlikdir.
- To'g'ri, tinchlik yuksak qadriyat ekanini, ayniqsa, yer yuzining turli mintaqalarida notinchlik, nizo va urush olovlari buruqsib turganini ko'rganda yaqqol his qilamiz.
- Albatta, Vatanimizda qaror topgan tinchlik va totuvlik, hamjihatlik hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan boyligimizdir.

– Bilasizmi, yurtimizda turli millat va elatlarning an'ana va qadriyatlari, madaniyati gullab-yashnayotgan mamlakatlardan biri ekani har bir millat vakiliga g'urur va iftixor baxsh etadi.

– Ha, albatta, ayniqsa, O'zbekistonni o'z Vatanim deb, uning taraqqiyot yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimiz buni dildan his qilmoqdalar.

BILIB OLING! Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi.

 **3-mashq.** Berilgan gaplardagi iboralarning so'z juftini topib, daftaringizga ko'chiring.

1. Ona farzandini kutaverib, yuragi tars yorilib ketayozdi. 2. Ona farzandining erishgan yutuqlarini eshitib, yuragi qoq yorilayozdi. 3. Shu kunlarda Qumrining ko'zini yog' bosgan edi. 4. Hovli yog' tushsa yalaguday edi. 5. Asal dugonasining xatolarini bo'yniga qo'ydi. 6. Otaxon o'g'li bilan bo'lgan suhbatni ko'nglidan o'tkazdi. 7. Uning boshqa bolalarga qaraganda o'pkasi yo'q edi. 8. Qiz qadamini tezlatib, o'ziga o'zi jilmayib, xursandligi ichiga sig'may borardi.

Foydalanish uchun berilgan so'zlar:

Sabri tugamoq, sevinmoq, mag'rurlanmoq, toza, haqiqatni tan olish, o'yladi, hovliqma, xursand.

 **4-mashq.** Iboralarning mazmunini berilgan so'zlar bilan ko'chiring.

So'zlar: *haqiqatni ko'rmoq, qaysarlik qilmoq, guvoh bo'lmoq, tuhmat qilmoq, yuvosh.*

1. To'nini teskari kiyib olmoq – _____
2. Ko'zi ochilmoq – _____
3. Ustidan chiqmoq – _____
4. Tosh otmoq – _____
5. Qo'y og'zidan cho'p olmagan – _____

 **5-mashq.** Quyidagi juftliklar tarkibidan soʻz birikmasi va iboralarni ajratib, daftaringizga yozing.

1. Bola oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi. – Qoʻrsligi va be-maʼni gaplari uning boshiga yetdi. 2. Shifokor dorini bolaning qulogʻiga quydi. – Bobo kerakli nasihatlarini nabirasining qulogʻiga quydi. 3. Semiz qoʻy goʻshti oʻz yogʻida qovurildi. – Yakka qolgan Hasanboy vijdon azobida oʻz yogʻida qovurildi. 4. “Qizimizning koʻzlari yaxshi koʻradi”, – dedi shifokor. – “Kamola opasini juda yaxshi koʻradi”, – dedi onasi.



Toʻrtta ibora yordamida gap tuzing.

9-MAVZU. DUNYO TAN OLGAN ADIBLAR
(Koʻchma maʼnoli soʻzlar)

1-DARS



1-topshiriq. Tinglang va topshiriqlarni bajaring.

POCHTACHILIKDAN YOZUVCHILIKKACHA
(Chingiz Aytmatov hayotidan xotiralar)

Buni hayot deydilar. Hayotda baʼzan odam oʻzi xohlamagan ishni ham qilishga majbur boʻladi. Koʻplab goʻzal asarlar muallifi, nafaqat qirgʻiz xalqining, balki jahon kitobxonlarining mehriga sazovor boʻlgan yozuvchi Chingiz Aytmatov urush yillari, oʻsmirlik paytlari pochta boʻlib xizmat qilgan. Yozuvchining bolalik xotiralarida urush yillari Shakar ovulida pochtachilik qilgani juda taʼsirchan ifodalangan: “Ovuldan biror oilaga qoraxat kelsa, oqsoqollar oldiga borib, ularga tushuntirar edik, – deb yozadi adib. – Ular avval halok boʻlgan kishining qarindoshlarini chaqirib, boʻlgan voqeadan xabardor qilib, oʻzaro maslahatlashgach, soʻng meni ergashtirib, marhumning uyiga borishardi. Men oila aʼzolariga qoraxatni oʻqib berardim... Ovulimizdagilar meni yaxshi tanishardi. Ular menga yomonlikni ravo koʻrishmasdi, kimgadir qoraxatni topshirmoq, oʻlimning sovuq xabarini yetkazmoq zimmamga yuklangan vazifa ekanini

tushunishardi. Ammo gohida o'z ishim bilan ko'chalaridan o'tib borayotgan bo'lsam ham ayollar meni ko'rib uvvos solishardi: "Yaqinlashma biznikiga, yo'qol, qorang o'chgur! Qani, daf bo'l-chi!" deb qarg'ashardi".

Taniqli olim K.Asanaliyev shunday yozadi: "Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashmagan, qahramonlariga hech qachon yolg'on bir so'z ham demagan, haqiqat qanchalik og'ir bo'lmasin, uni tag-tugigacha ayta olgan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, u ayovsiz chинchi (haqiqatchi), rostgo'y yozuvchi. Qahramonlariga nisbatan ayovsizligi yozuvchiga xos oq niyatdan kelib chiqadi".

Chingiz Aytmatovning o'zi bu haqdagi xotiralarini shunday bayon qilgan ekan: "Qishloq xo'jaligi institutida o'qib yurgan kezlrimda gazetalar uchun juda ko'p maqolalar yozganman. Yoshlar hayotiga oid bir qator muammolarni dadil ko'tarib chiqar edik. Gazetalarda bosilayotgan maqolalarning sayozligi, quruq, hech kimga keraksiz gaplardan iboratligi meni ajablantirardi. Bunaqada gazetalarini hech kim o'qimay qo'yishi mumkin-ku, deya xavotirga ham tushardim. Shularni o'ylab, odamlarni qiziqтира oladigan faktlarni to'plab, maqola yozishga kirishganman. Ba'zan yaxshi chiqardi, ba'zan esa aytmochi bo'lgan fikrimni ifoda eta olmay qiynalardim".

Shunday qilib, urush yillari odamlarga "Qoraxat" tashib yurgan pochtagi nafaqat o'z millati, balki yuragidagi umuminsoniyatga bo'lgan mehri, boy tafakkuri va haqso'zligi tufayli umrboqiy ijodkorga aylandi. Ch.Aytmatovning ijodiy mahsuloti dunyoning 180 dan ortiq tillariga o'girilgan. Jahonda sanoqli adiblar egallagan cho'qqini turkiy adabiyot vakillaridan hozircha faqat Chingiz Aytmatovgina egallab turibdi. Bugungi kunda tadqiqotchilar adibning asarlari jahon tillarida 80 million nusxadan oshiq chop qilinganini e'tirof etishmoqda. Bu fakt adib nomini XX asrning eng taniqli Jan-Pol Sartr, Alber Kamyu, Maks Frish, Fridrix Dyurrenmatt, Gabriel Garsia Markes, Vargas Losa, Karlos Fuentes, Kendzaburo Oe kabi so'z san'atkorlari safidan joy olganini bildiradi. Adib eng so'nggi asarigacha inson qalbini, uning ko'nglini himoya qildi, inson hamda olam haqida o'z iztiroblarini, o'y-kechinmalarini, inson va insoniy fazilatlar haqidagi orzu-armonlarini asarlari orqali bayon etdi. Zotan, yozuvchining umri u yashagan yillar bilan emas, kitoblari yashagan asrlar bilan o'lchanadi.

(S. Tojiddinova)

2-topshiriq. Berilgan javoblarga savollar tuzing.

– _____ ?

Chingiz Aytmatov urush yillari, o'smirlik paytlari pochtachi bo'lib xizmat qilgan.

– _____ ?

Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashtirmagan, haqiqat qanchalik og'ir bo'lmasin, uni tag-tugigacha ayta olgan.

– _____ ?

Ch. Aytmatov har qanday vaziyatda o'zining mustaqil fikrini dalillab aytgan. O'rinsiz tortishish, his-hayajonga berilishni o'ziga ep ko'rmagan.

– _____ ?

– Ch. Aytmatov asarlari dunyoning 180 dan ortiq tillariga tarjima qilingan.

– _____ ?

– Adib inson va insoniy fazilatlar haqidagi orzu-armonlarini asarlari orqali bayon etdi.

3-topshiriq. Suhbat matnini davom ettiring.

– Darsdan keyin nima qilmoqchisan?

– Kutubxonaga o'tmoqchiman. Bugun bizga jahonga tanilgan adiblar haqida ma'lumotlar to'plash haqida topshiriq berildi.

– Bizga ham shunday topshiriq berildi. Qaysi adib haqida kitob olmoqchisan?

– Men Chingiz Aytmatov haqida kitob olmoqchiman.

– Nima uchun aynan Chingiz Aytmatov haqida?

– Men adibning "Oq kema" asari bo'yicha ishlangan filmni ko'rganman.

Shuning uchun shu adib haqida ma'lumot to'plamoqchiman.

– Men esa....

BILIB OLING! Gap tarkibida so'zlar o'zining asl ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noni ham bildirishi mumkin. Masalan: *Tikansiz gul bo'lmas* (o'z ma'nosida). *Gul diyorum bor mening* (ko'chma ma'noda).



1-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday ma'noni anglatishini tushuntiring.

1. Uzukning **ko'zi** qimmatbaho toshdan ekan. _____
2. Onamning **ko'zlari** juda chiroyli. _____
3. Shuhratning "**Oltin** zanglamas" romanini o'qiganmisan? _____
4. Bu **oltin** tangalar XV asrdachi qarilgan ekan. _____
5. O'lkamizda **oltin** kuz boshlandi. _____
6. Tikansiz **gul** bo'lmas. _____
7. Azamat qo'li **gul** usta. _____
8. Hovlimizda turli xil **gullar** bor. _____
9. Sentabr oyining **boshida** o'qishlar boshlanadi. _____
10. Aql yoshda emas, **boshda**. _____



2-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying. Gapda so'zlar qanday ma'noda kelganini yozing.

So'zlar: *oltin, gul, zumrad, boshga, kumush, egri, yengil, boshidan, temir, boshigacha.*

1. ___ diyorim bor mening, gulshan diyorim bor mening. _____.
2. Onam maktabni _____ medal bilan bitirganlar. _____.
3. Do'st _____ qarar, dushman oyoqqa. _____.
4. ___ qishdan, _____ bahordan, qolishmaydi kuzning ziynati. _____.
5. Harbiy xizmat _____ intizomni talab qiladi. _____.
6. _____ ish qirq yildan keyin ham bilinadi. _____.
7. Ertalab _____ shabada esdi. _____.
8. Ko'chani u _____ bu _____ olcha ekilgan ekan. _____.



4-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan gaplarning mazmunini tushuntiring.

SHOIR IJODIDA DOG'ISTON TIMSOLI

“Mening Dog‘istonim” Rasul Hamzatov ijodiy barkamolligini to‘la namoyon etadigan asar. Rasul Hamzatov – Dog‘iston timsoli. Rasul Hamzatov nomi tilga olinishi bilanoq, hamma “O, Dog‘iston!” deb hayqirib yuboradi. Bu nom, bu zot tog‘li o‘lkaning nomini, millatining ruhi va tafakkur tarzi qandayligini butun dunyoga namoyish qildi. Shoirning she‘rlari o‘zini, yurtini – hech qachon bir-biriga nisbatan dushmanlik hissini tuymagan elatlar yashaydigan Vatanini ko‘klarga ko‘tardi.

Zo‘r shoir bordir, ammo Dog‘istonni undan ortiq sevadigan shoir bo‘lmasa kerak!

Mana Hamzatov “Mening Dog‘istonim”da nimalarni yozadi:

“Dog‘iston – mening muhabbatim, mening kelajagim, mening tavbam, mening ibodatim!

Dog‘iston – hayotimning mazmuni, barcha she‘rlarimning bosh mavzusi. Ovulim, tog‘larim, Dog‘istonim. Xayollarim, tuyg‘ularim, istaklarimning oshyoni mana shu yer. Men o‘zim shu oshyondan temirqanot bo‘lib uchib chiqdim. Qo‘shiqlarim ham shu oshyondan parvoz qilgan.

Dog‘iston mening maskanim. Dog‘iston mening beshigim. Har bir odam bolaligidan o‘z xalqining vakili bo‘lish uchun dunyoga kelganini bilishi va shu sharaflı vazifani zimmaga olishga o‘zini tayyorlashi kerak.

Agar belanchaklar uzra allalar aytilmaganda, ehtimol, dunyoda boshqa qo‘shiqlar yaratilmasdi.

Onalar – dunyoning eng birinchi shoirlari! Onalar allasi – odamzod yaratgan qo‘shiqlarning ibtidosi.

Qo‘shiq yurakda yaraladi, yurak uni tilga beradi, til esa odamlarning yuragiga yetkazadi, odamlarning yuraklarida asrlardan asrlarga o‘tadi.

She‘r shunday bo‘lishi kerakki, uni hech tortinmay onangga, qizingga, singlingga o‘qiy olgin”.

(K.To‘ramurodov)



5-topshiriq. Matn asosida quyidagi savollar yordamida o‘zaro bahslashing.

1. Matnda ajratib ko‘rsatilgan gaplarga diqqat qiling. Mazmunini tushuntiring.
2. Nima uchun Rasul Hamzatov deganda hamma “O, Dog‘iston!” deb hayqirib yuboradi. Sabablarini ko‘rsating.
3. Rasul Hamzatov Dog‘istonni qanday ta‘riflagan? Siz o‘z yurtigingizni shunday ta‘riflay olasizmi?



6-topshiriq. Matnni o‘qing. Berilgan ma‘lumotlar asosida Rasul Hamzatovning tarjimai holini yozing.

Rasul Hamzatov haqidagi ma‘lumotlar:

Dog‘istondagi avar elining farzandi.

XX asr jahon she‘riyatining yirik vakili.

Tug‘ilgan vaqti: 1923-yil 8-sentabr.

Tug‘ilgan joyi: Dog‘iston Xunzax rayoni Sada qishlog‘i.

Otasi: Xalq shoiri Hamzat Sadasa.

16 yoshida shoir sifatida tanilgan.

Birinchi kitobi 1943-yilda chop etilgan.

Asarlari: *“Tog‘ qo‘shig‘i”, “Tog‘ qizi”, “Mening qalbigim tog‘larda”, “Dog‘istonim”, “Yuksak yulduzlar”, “Tug‘ilgan kunim”, “Tog‘likning vatani”, “Ovuldan xat”* singari she‘riy kitoblar, *“Ona tilim”, “Shu ham erkakmi?”, “Do‘stlik haqida qissa”* kabi she‘rlari va boshqalar.

Vafoti: Moskva. 2003-yil 3-noyabr.



Rasul Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” asaridagi fikrlardan kelib chiqib, o‘z Vatanningizga yozma ta‘rif bering.



7-topshiriq. Tinglang va eslab qoling.

MARK TVEN HAQIDA QIZIQARLI FAKTLAR

Jahon adabiyoti tarixida sarguzasht-detektiv asarlar yaratgan buyuk adib Mark Tven (Samuel Klemens) 1835-yilda AQShning Missuri shtatiga qarashli Florida qishlog'ida xizmatchi oilasida dunyoga keldi. Ulg'aygach, harf teruvchi, Missisipi daryosida darg'alik (lotsmanlik) qiladi, oltin va kumush konlarida ishlaydi, muxbir sifatida G'arbiy Yevropada bo'ladi.

“Mark Tven” nima degani?

Heklberri Fin va Tom Soyer haqidagi asarlari bilan dunyoga mashhur bu yozuvchining asl ismi Semuel Lenghorn Klemensdir. “Mark Tven” taxallusining ma'nosi “Bexavotir suv” demakdir. Yozuvchi Mark Tven taxallusini Missisipida lotsman yordamchisi bo'lib ishlab yurgan kezlarida tanlagan. Daryo qatnoviga oid bu atama kema o'tishi mumkin bo'lgan chuqurlikni anglatadi. Buni aniqlash uchun daryoga arqon tashlangan, suv 2 dengiz sarjini (3, 7 metrga yaqin) belgisiga kelganda o'lchovchi: “Mark tven!” (inglizchada – mark twain) deya hayqirgan. Bu ibora so'zma-so'z “ikki o'lcham” deb tarjima qilinadi. Kema qatnovi uchun daryo kamida shuncha chuqurlikka ega bo'lishi kerak.

Garchi adibning taxallusi ikki sarjin ma'nosini bersa-da, asarlarining ma'nosi juda chuqur. Yozuvchi sarguzasht asarlari, o'tkir fikrlari bilan millionlab o'quvchilarning qalbiga chuqur kirib borgan.

Adib jahondagi million-million kishilarning sevimli yozuvchilaridan biriga aylanib, uddaburon bolalarning obrazlarini yarata oldi.



8-topshiriq. Suhbatni o'qing va davom ettiring.

Botir: Bilasanmi do'stim, men Mark Tven haqidagi xotiralarni o'qib chiqdim. Juda qiziq ma'lumotlar bor ekan.

Bahrom: Qanday ma'lumotlar?

Botir: Mark Tven Galleya kometasi yerga uchib kelgan yili tug'ilgan ekan. U o'z asarlarini yozuv mashinkasida yozgan ilk yozuvchi bo'lgan ekan.

Bahrom: Qiziq, bu haqda birinchi eshitishim.

Botir: Taniqli fizik olim va ixtirochi Nikola Tesla Mark Tvenning eng yaqin do'sti bo'lgan ekan. Aynan uning ta'sirida yozuvchida "Yankilar qirol Artur saroyida" asarini yaratish fikri tug'ilgan.

Bahrom: Mark Tvenning skrapbuking uchun yelimli sahifalarga ega albomni kashf qilganini eshitgan edim.

Botir: Mark Tven uchta ixtirosiga patent olgan ekan. Shuningdek, u 29 marta Atlantika okeanini kesib o'tgan, 30 ta kitob va 50 mingdan ziyod xat yozgani haqida ma'lumotlar berilgan.

Bahrom: Sen "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarini o'qiganmisan?

Botir: Shunday asar haqida eshitganman, lekin o'qimaganman.

Bahrom: Zo'r asar. Asar qahramonlari Tom Soyer va Geklberri Finn dengizchi bo'lishni orzu qilishadi, Missisipi daryosi bo'ylab sayohat qiladilar. "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarida ta'riflangan g'orlarda aslida Mark Tvenning o'zi bolaligida o'ynab yurar ekan. Har yili 30-noyabrda Mark Tvenning tug'ilgan kuni AQShning Missuri shtatida nishonlanadi va Tom Soyerning uyidagi devorlarni oqlash musobaqasi o'tkaziladi. G'oliblarga Mark Tven kitoblari taqdim etiladi.




3-mashq. Ko'chma ma'nodagi so'zlarni aniqlang va quyidagi jadvalga yozing.

1. Yer tagida oltin qoziq.
2. Derazaning ba'zi ko'zlari darz ketibdi.
3. O'zi bitta, qulog'i to'rtta.
4. Ko'zingni ehtiyot qil, bolam.
5. Oltin boshingiz omon bo'lsin, Onajonim.
6. Oppoq qizim, nega yig'layapsiz?
7. O'zimning yumshoqqina buvijonim.
8. Ko'kda pag'a-pag'a oppoq bulutlar ko'rindi.
9. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealar bo'ldi.

O'z ma'nosida	Ko'chma ma'noda

 **4-mashq.** Berilgan soʻz birikmalari yordamida gaplar tuzing. Ulardagi koʻchma maʼnoli soʻzlarning tagiga chizing.

Tosh yoʻl. Tosh yurak. Temir qanot. Temir darvoza. Kumush qoshiq. Kumush toʻy. Shirin olma. Shirin bola.

 **9-topshiriq.** Tahlil qiling. Har bir hikmat boʻyicha doʻstlaringiz bilan bahs-munozaraga kirishing.

MARK TVEN YON DAFTARCHASIDAN

– Inson hayotida ikki ahamiyatli kun bor: 1. Dunyoga kelgan kuni. 2. Nima uchun bu dunyoga kelganini anglagan kuni.

– Xijolat boʻladigan yagona mavjudot, bu insondir. Chunki faqat ugina xijolatga qoʻyadigan ish qiladi.

– Agar baxtli hayot kechirishni xohlasangiz, hayotingizni odamlarga yoki narsalarga emas, balki maqsadga bogʻlang.

– Oʻz koʻnglingni koʻtarishning eng yaxshi yoʻli – kimningdir koʻnglini koʻtarishdir.

– Oʻzingizga boʻlgan ishonchni soʻndirmoqchi boʻlganlardan uzoqlashing. Buyuk inson, aksincha, siz ham buyuk boʻla olishingizga ishonch uygʻotadi.

– Muhabbat umrda bir marta keladi. Yoqtirish esa, bir necha marta. Sen bularning orasini aralashtirma, tagʻin nadomat qilib yurmagin.

(Oʻ. Ravshanov tarjimasini)

10-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Mutolaa madaniyati

Mutolaaga qiziqish susayishi, aholi savodxonligi darajasining pasayishi jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi.

Mutolaa madaniyati – nima? Keling, shu haqida batafsil to‘xtab o‘tamiz.
Mutolaa madaniyati:

- o‘zining mutaxassisligi hamda badiiy-ma’naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o‘zi uchun zarurini o‘qish;
- o‘qiganlarini mustaqil talqin qila olish;
- uning fusunkor olamiga kira bilish, zarur hayotiy xulosalar chiqarish;
- asarning muhim joylarini yon daftarchaga ko‘chirib olish, notanish bo‘lgan so‘zlarni esda saqlab qolishga intilish;
- muntazam ravishda o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- kitob bilan muomalada eng qadrdon do‘stga munosabatda bo‘lganday e‘tibor bilan qarash;
- kitobni yaroqsiz holga keltirmaslik uchun undan to‘g‘ri foydalanish;
- o‘qigan kitobini do‘stlariga so‘zlab berish;
- har bir yaxshi kitobni ilm qal‘asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta‘minlash kitobxonlik madaniyatining muhim ko‘rinishlaridir.

(A. Mavrulov)



11-topshiriq. O‘qing va munosabat bildiring.

Mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma’naviy olamini boyitadi. “NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016-yildagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston – 10,7, Tailand – 9,4, Xitoy – 8, Filippin – 7,6, Chexiya – 7,4, Rossiya – 7,1, Shvetsiya – 6,9, Fransiya – 6,9 va Vengriya – 6,8 soat bilan yuqori o‘rinlarni egallagan.



11-topshiriqdagi ma’lumotga asoslangan holda (1 kunda, 1 haftada, 1 oyda) vaqtingizni nimalar uchun sarflaganingiz haqida ma’lumot tayyorlang.

1-DARS

10-MAVZU. VAQT QADRI (Sinonim va antonim soʻzlar)



1-topshiriq. Tinglang. Fikrlarni misollar bilan tushuntiring.

VAQT – ENG QIMMATBAHO BOYLIK

Mening orzu-maqсадlarim katta edi. Bugun emas, ertadan boshlayman derdim. Yillar oʻtdi, erta ham keldi. Koʻzguna boqqanimda esa menga bir moʻysafid qarab turar edi.

... Vaqtни “esiz”, “qaniydi”, “koshkiydi”lar bilan oʻtkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan.

Najmiddin Kubro

“Hayotni sevasanmi? Unday boʻlsa, vaqtни isrof qilma”, – deydi Benjamin Franklin.

“Vaqtning ketdi – naqding ketdi” maqoli vaqtdan omilkorlik bilan foydalanish zarurligiga ishora qiladi. Vaqti bor odamning barchasi aslida boy-badavlatdir.

Masalan, biror narsani qancha erta bilsangiz, bundan daromad olishingiz va loyiha ustida ishlashingiz uchun shuncha koʻp vaqtningiz boʻladi. Yoʻqotilgan vaqt biz yashay olmagan daqiqalardir, uni afsus, gʻazab va umidsizlikka sarf qilmang. Siz vaqtningizni qanday sarflashingizga koʻra, undan shuncha foyda olasiz.



2-topshiriq. Berilgan savollar boʻyicha oʻzaro suhbatlashing.

1. Mana 11 yil maktabda taʼlim oldingiz. Oʻylab koʻring-chi, siz shu yillar mobaynida vaqtdan unumli foydalandingizmi?
2. Ayting-chi, oʻzingizni oliy oʻquv muassasasiga kirishga yoki biror sohada ishlashga tayyorman, deya olasizmi?
3. Bekor oʻtgan vaqtlaringiz uchun achinganmisiz?
4. Agar vaqtни orqaga qaytarishning imkoniyati boʻlganida nima qilgan boʻlar edingiz?


BILIB OLING! Sinonim soʻzlar talaffuzi va yozilishi har xil, lekin maʼnolari bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlardir.

Masalan: *ozgina, jindek, picha, biroz*.

Sinonim soʻzlar bir xil narsa-buyumlarni (*ovqat, taom, osh*) va ularning belgisini (*ishchan, tirishqoq, harakatchan*), bir xildagi harakatlarni (*asramoq, saqlamoq*) bildiradi.

 **1-mashq.** Nuqtalar oʻrniga qavs ichidagi soʻzlardan mosini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. _____ (nuroniy, moʻysafid, keksalar) hassaga tayanib, sekin-asta qadam tashlar edi.
2. Hammasini _____ (angladi, tushundim, uqdik), boshqa takrorlanmaydi.
3. Yurtimizda barcha millat vakillari _____ (baravar, teng) huquqli.
4. _____ (rost, toʻgʻri) oʻzadi, egri toʻzadi.
5. Yomgʻir tingach, _____ (koʻkda, osmonda, samoda) kamalak koʻrindi.
6. Hozir hammasini _____ (mukammal, batafsil) tushuntirib beraman.
7. _____ (murodim, maqsadim) oliy oʻquv yurti talabasi boʻlish.
8. Bu _____ (kiyim, libos) sizga juda yarashibdi.

 **2-mashq.** Avval sinonim otlarni, keyin sinonim sifatlarni koʻchiring.

Tayyor, taxt; teng, baravar; madad, yordam, koʻmak; talantli, isteʼdodli, qobiliyatli; ziyrak, sezgir, tiyrak; murod, maqsad, istak; batafsil, mukammal; rost, toʻgʻri; shamol, yel, shabada; kichik, kichkina, mitti; jasur, qoʻrqmas, botir.

Sinonim otlar: _____

Sinonim sifatlar: _____



3-topshiriq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan gaplarga e'tibor bering va berilgan savolga javob yozing.

Vaqtning munosib taqsimlash – marraning yarmi

Xitoy falsafasiga ko'ra, inson vaqtning yaratishi mumkin ekan. Kimningdir "vaqtning yo'q", "ilojsizman" deyishi, aslida "men buni xohlamayman" degani. Vaqt – bu hayotdagi bor-budimiz. Hech nimasiz qolgan odamning ham hali vaqt bo'ladi.

Hayotda munosib yashash istagi bo'lgan inson, avvalo, vaqtning to'g'ri taqsimlash olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Vaqt noto'g'ri taqsimlanar ekan, ishda va hayotda ko'zlangan maqsadga erishish qiyin.

Vaqt – buyuk tarozi. Inson kim bo'lishi, yoshi, daromadi, e'tiqodidan qat'i nazar vaqtning chegaralangan. Shuning uchun hayotda qancha vaqtning borligi emas, uni qanday sarflash muhim ahamiyatga ega.

Maqsadga erishishga jiddiy kirishgan bo'lsangiz, ularni nafaqat to'g'ri belgilab olish, balki sizni bu yo'ldan chalg'ituvchi omillar va odatlardan voz kechishingiz kerak bo'ladi. Qanday qilib?



4-topshiriq. O'qing va ajratib ko'rsatilgan gaplarga munosabat bildiring.

Kunlardan bir kuni donishmanddan: "Siz umringizda hech xato qilganmisiz?" – deb so'radilar. "Qilganman, – debdi donishmand. – Uch marta xazinamni yo'qotdim. Avval ne mashaqqat bilan to'plagan boyligimni yo'qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boyligimni topdim. Keyin yana bir do'stimni yo'qotdim. Yo'q, uni vafot etgan deb o'ylamang, u haqiqiy do'st emas ekan, boshimga tashvish tushganda tashlab ketdi, do'stligimizga xiyonat qildi. Modomiki, senga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do'st bo'la olmaydi, deb o'zimni yupatdim. Keyin boshqa chinakam do'st topdim. Ammo bu orada **shunday bir xazinamni yo'qotdimki, buning uchun o'zimni hech kechira olmayman. Men uni o'z qo'lim bilan yo'qotib qo'ydim. Bu bekor o'tgan kunlarim, bekor kechgan oylarim, bekor o'tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar, qayta tug'ilganimda**

edi, o'sha bekor o'tgan damlarimni ham foydali ishlarga: o'qishga, mehnatga sarflagan bo'lardim..."

Matn sizni o'ylantirdi, to'g'rimi? Sizni chalg'ituvchi omillar va odatlardan voz kechish, deganda nimani tushundingiz? Ayni paytda sizda shunday omillar va odatlar bormi?



Ertangi kuningiz, bir hafta davomida qiladigan ishlaringiz rejasini tuzing. Rejadagi har bir ishga qancha vaqt ketishini taxminan taqsimlab chiqing.

2-DARS



5-topshiriq. Tinglang va topshiriqlarni bajaring.

Rivoyat qilishlaricha, qadimda bir boy ikki xizmatkoriga pul berib, ularni bozordan savdo qilish uchun yuboribdi. Xizmatkorlardan biri vaqtini tejab, bozordan yaxshi narsalarni sotib olib qaytibdi. Ikkinchi xizmatkor esa bozorga borib, "hali erta" deb vaqtini va pulini behuda narsalarga sarflay boshlabdi. U vaqtini ham, pulni ham isrof qilib, boy buyurgan savdoni amalga oshira olmabdi. Boy o'z ishlarini vaqtida qilib, isrofga yo'l qo'ymay qaytib kelgan xizmatkorni mukofotlabdi. Buyurilgan vazifalarni bajarmagan va vaqtini isrof qilgan xizmatkorni jazolagan ekan. Inson ham bu dunyoda umr degan mablag'ini tejasa, undan o'zi uchun yaxshi narsalarni savdo qilsa, ko'zlagan murodiga yetadi. Ammo inson berilgan umrni isrof qilsa, undan oqilona foydalanmasa, qattiq adashadi. Ba'zan vaqtini foydali ishlarga sarflab, hayotda muvaffaqiyatlarga erishayotgan kishilarni ko'rib quvonasan. Ba'zan esa umrini behuda ishlarga sarf qilib, uni isrof qilayotgan kishilarni ko'rib ich-ichingdan xafa bo'lasan.



6-topshiriq. Matn yuzasidan savollarga javob bering.

1. Nima uchun boy bozordan savdo qilish uchun ikki xizmatkorga pul berib jo'natdi? 3 ta sababini ko'rsating.

2. Boyning xizmatkorlarni taqdirlab yoki jazolashining 3 ta sababini ayting.

3. Matnda ajratib ko'rsatilgan gaplarni o'qing va mazmunini misollar bilan tushuntirib bering.

BILIB OLING!

Antonim so'zlar ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan zid ma'noli so'zlardir. Bunday so'zlar ot, sifat so'z turkumlarida ko'p uchraydi. Masalan: *yaxshi-yomon, shirin-achchiq, rost-yolg'on (sifat antonim), ota-ona, kecha-kunduz (ot antonimlar)*.



3-mashq. Antonim so'zlarni o'qing. Kishilarning ijobiy va salbiy sifatlarini bildiruvchi so'zlarni alohida yozing.

Rahmdillik, berahmlik; ishchanlik, dangasalik; lapashanglik, chaqqonlik; baxillik, saxiylik; xursandlik, xafalik; botirlik, qo'rqqoqlik; anqovlik, ziyraklik; ahillik, urishqoqlik; rostgo'ylik, yolg'onchilik; yaxshilik, yomonlik.

Kishilarning ijobiy sifatleri: _____

Kishilarning salbiy sifatleri: _____



4-mashq. Antonim so'zlarni aniqlang. Ularni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga namunadagidek ko'chiring.

Namuna: Shirin yolg'on – achchiq haqiqat.

1. To'g'ri til tosh yorar, egri til bosh yorar.
2. Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i.
3. Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.
4. Yaxshilik nur keltirar, yomonlik zulmat.
5. Erta ekan xirmon qilur, kech ekan armon qilur.
6. Eski yilning hisobi – yangi yilning kitobi.
7. Yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og'izdan chiqadi.
8. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar.
9. Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l.
10. Tejab yegan darmonda, tejamagan – armonda.



7-topshiriq. O'qing va xulosa chiqaring. Shunga ko'ra quyidagi jadvalni to'ldiring.

BILASIZMI?

O'rtacha yetmish besh yil umr ko'rgan insonning asosiy vaqti quyidagilarga sarflanadi:

- umrning o'rtacha o'n besh yili bolalik va o'smirlik bilan o'tadi;
- agar bir sutkada sakkiz soatdan uxlansa, yigirma besh yil umr uyqu bilan o'tadi;
- agar bir sutkada sakkiz soat kasb-kor bilan mashg'ul bo'linsa, yigirma besh yil umr ishlashga sarflangan bo'ladi;
- agar bir sutkada uch mahal ovqat iste'mol qilinsa, har ovqatlanishga yarim soat vaqt sarflansa, to'rt yarim yildan ortiq umr ovqatlanishga ketadi;
- qolgan besh yildan ortiq umr hammaning o'zi yaxshi ko'rgan sevimli mashg'ulotlariga sarflanadi.

Savollar	Javoblar
Agar bir sutkada 8 soatdan uxlasangiz, 2 yil mobaynida necha yillik umringiz uyqu bilan o'tadi?	
Bir sutkada 6 soatdan o'qisangiz (maktabda) 2 yil mobaynida o'qishga qancha vaqt sarflagan bo'lasiz?	
Bir sutkada uch mahal ovqatlansangiz, har ovqatlanishga yarim soatdan vaqt sarflansa, 2 yil mobaynida qancha vaqt ovqatlanishga ketadi?	

8-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Vaqtни qadrlash madaniyati

Insonga berilgan eng qadrlı ne'mat uning hayoti, umridir. Inson o'z umrini tejab, uni yaxshi narsalarga sarflashi lozim. Buning uchun vaqtни taqsimlash kerak. *Vaqtни qanday qilib samarali taqsimlash mumkin?*

Zarur ishning keraklı vaqtda qilinmaslıgı muvaffaqiyatsızlıkka sabab bo'ladi. Juda band odam ham vaqtни taqsimlashda donolik qilsa, muvozanatni saqlashi, salomatlıgı yoki hayotini himoya qilishi mumkin.

Hayot va vaqt o'rtasidagi muvozanat buzilsa, odam tushkunlikka tushadi. Shunday ekan, bizga berilgan 24 soat oila, o'qish, qiziqishlarimiz o'rtasida teng taqsimlanishi lozim.



9-topshiriq. Tavsiyalar asosda bahs-munozaraga kirishing.

Vaqtни to'g'ri taqsimlash yuzasidan tavsiyalar

Vaqtıngizni 7 kunga taqsimlang: Oldindagi 7 kun yoki bir oyda nimalarga ulgurish mumkin? Kundalik yoki smartfoningizga 30 daqiqa, 1 soatlik qismlardan iborat rejalarnı belgilab oling. So'ng har kun yakunida vazifalar natijasini yozing. Vazifalarnı "kerak" yoki "nokerak" toifalar bo'yicha belgilash mumkin.

Tongni jismoniy mashq bilan qarshi oling: Tonggi faollik tanadagi zararli moddalarning chiqib ketishi, quvvatni oshirish, chidam va bardoshlı bo'lish hamda aqliy, ruhiy holatda jiddiy o'zgarishlar bo'lishiga yordam beradi.

Ish kunini eng muhim vazifalar bilan boshlang: Eng qiyin ishni birinchiga qo'yish kerak. Tong esa buning aynı pallası. Natijada kunning qolgan qismida siz ijobiy kayfiyatda bo'lasiz.

Vazifani to'g'ri belgilang: Vazifa to'g'ri yoki noto'g'ri belgilangan bo'lishi mumkin. Noto'g'ri maqsad – nishonni xato olish degani. Natijada behuda vaqt va kuch yo'qotasiz.

Ish jarayonida tanaffus qilish: Ilmiy kuzatishlarga ko'ra siz 52 daqiqa ishlab, 17 daqiqa tanaffus qilishingiz kerak. Ana shunda ruhiy, hissiy va

jismoniy holatingiz me'yorida bo'ladi. Bunday tanaffuslarda jismoniy faol bo'lish kerak.

Virtual olam uchun aniq vaqtni belgilash: Internet, ijtimoiy tarmoqlar diqqatimizni chalg'itadi, vaqtning zoye ketishiga sabab bo'ladi. Siz elektron pochta va messenjerlarni ko'zdan kechirish uchun kunning muayyan vaqtini belgilab oling. Aks holda daqiqalar soatlarga ulanishi va bu holat ish rejasiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.



Tavsiyalar sizga yoqdimi? Yana nimalarni qo'shgan bo'lar edingiz? O'zingizning tavsiyalaringsizni yozing.

1-DARS

11-MAVZU. ISTE'MOL MADANIYATI

(Omonim so'zlar)



1-topshiriq. Tinglang va munosabat bildiring.

Rivoyat qilishlaricha, qadimda bir boyning mol-dunyosi ko'payib ketibdi. U donishmanddan mol-dunyosi ko'payib borayotganligini, uni qanday kamaytirib, bebaraka qilishini so'rabdi. Donishmand unga: "Nonni tuyaning ustida yegin", – debdi. Bir kuni boy tuyaning ustida non yeb kelayotganida noxosdan nonning ushoqlari yerga tushib ketibdi. Boy tuyadan tushib, non ushoqlarini terib olibdi. Boyning bu ishini kuzatib turgan donishmand: "Boy tuya ustida non yesa, uning ushog'i yerga tushib isrof bo'lishi kerak edi. Isrof mol-mulkni bebaraka qilib, uning kamayishiga sabab bo'lar edi. Ammo bu boy non ushog'ini terib olib, isrofga yo'l qo'ymadi. Isrofga yo'l qo'ymaydigan boyning moli hech qachon kamayib, bebaraka bo'lmaydi", – degan ekan. Shu sababli rizq-ro'zimiz bo'lgan non va boshqa mahsulotlarni isrof bo'lishidan ehtiyot bo'lishimiz lozim.



2-topshiriq. Matn yuzasidan savollarga javob bering.

1. Rivoyatning asosiy mazmuni nimadan iborat?
2. Nima uchun donishmand boyga "Nonni tuyaning ustida yegin", – deb aytdi?

3. Matnda ajratib ko'rsatilgan donishmandning fikriga munosabat bildiring.

4. Isrofgarchilik deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.

BILIB OLING! Talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar **omonim** so'zlar deyiladi. Masalan: ot–ot. Omonim so'zlar turli tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: ot – ism, ot – otish, ot – hayvon ma'nolarida qo'llanishi mumkin.



1-mashq. Omonim so'zlarni aniqlang. Ularning gapdagi ma'nosini tushuntiring.

1. Olma sog'liq uchun foydali. 2. Olmani so'ramasdan olma. 3. O'tkir bilan kutubxonada uchrashdim. 4. Bu bolaning zehni o'tkir. 5. Ehtiyot bo'ling, pichoqning dami o'tkir ekan. 6. Chaqaloqqa chiroyli ot qo'yildi. 7. Bobom otamga qo'ng'ir ot sovg'a qildi. 8. O'qni nishonga ot. 9. Keldi yoz chog'i, mevalar pishdi. 10. Mehmonga chiroyli dasturxon yoz. 11. Xatni xatosiz yoz.



2-mashq. Berilgan to'rtliklarni o'qing. Omonim so'zli birikmalarni ko'chirib, ma'nosini tushuntiring.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

(Fozil Yo'ldosh o'g'li)

Kelur sel, ko'kda goho bo'lsa chaqmoq,
Zarar qilgay danakni tishda chaqmoq.
Yomondir ikki o'rtoq o'rtasida –
Urishtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq.

(Habibiy)



3-topshiriq. Matnlarni o'qing. Har ikkala matnni qiyosiy tahlil qiling. Berilgan savollar bo'yicha o'zaro suhbatlashing.

“Talabalik davrimda hisob-kitob daftarcham bo‘lardi. Unda har oyda qilinadigan sarf-xarajatlar ro‘yxatini yozib borardim. Yo‘lkira, tushlik, uy ijarasi haqi va ro‘zg‘orga ketadigan mayda xarajatlar pulini alohida konvertlarga solib qo‘yardim. Shunda har oy biror bir yangi buyum olishga ham mablag‘ ortardi, – deb eslaydi onam. – Turmush qurgach, oilaviy budjetimizni ham shu tarzda rejalashtirishga odatlandik. Har oyda ortib qolgan mablag‘imizni oz-ozdan yig‘ib boraverdim. Shuning orqasidan avval yer olib, uy qurdik, mashinali ham bo‘ldik. Bolalarimiz katta bo‘lgach, ularning tashvishlari-yu o‘qishiga sarfladik, hammalarini oliy o‘quv yurtlarida o‘qitdik. Mana kam bo‘lganimiz yo‘q”.

“Tejamkorlikning avval boshi eng mayda xarajatlardan boshlanadi. Masalan, oddiy yo‘lkira va tushlikka sarflanadigan xarajatni olaylik. Bir kuni yon qo‘shnim oylik maoshi yo‘lkira, tushlik va yana shunga o‘xshash mayda xarajatlardan ortmasligidan nolidi. Ayniqsa, taksiga va turli tamaddixonalarda qilinadigan tushlikka ko‘p pul sarflashini aytdi. Unga ishga arzonroq avtoullovda qatnab, tushlikni uydan olib borishni maslahat bersam, biroz ensasi qotdi...”

Savollar:

1. Ayting-chi, siz oilangiz budjeti qanday shakllantirilganini bilasizmi?
2. Uyingizga bir oy davomida atigi bir marotaba keladigan mablag‘ning nimalarga sarflanishini-chi?!
3. Otangiz yoki onangiz qiynalib topayotgan pulga nimalarni rejalashtiryapsiz? O‘zingiz ishlab topgan pulni qanday taqsimlagan bo‘lar edingiz?



4-topshiriq. Tinglang. Savollarga javob bering.

Oldingi yuz yillik boshlanishidan avval suvni ariq va hovuzlardan olishgan. 1909-yilda Toshkentda birinchi vodoprovod qurildi. Ungacha suv talon bilan taqsimlab berilgan...

Hozir esa shahrimizning har bir istiqomat qiluvchisi istaganicha suvdan foydalanishi mumkin. Suvning bizga katta mehnat va mablag'lar evaziga yetkazilishini o'ylamaymiz ham.

Xo'sh, uyimizga suv qayerdan keladi?

Suv toza bo'lishi uchun filtrlanadi va zararsizlantiriladi. Tozalangan suv vodoprovod stansiyalaridan turar joylarga uzatiladi. U yerdan katta quvurlar, magistrallar orqali taqsimlanadi va vodoprovodlardan tarqatuvchi tarmoqlarga keladi. Tarqatuvchi tarmoqlardan esa uylarimizga o'tkazilgan trubalar orqali bizga yetkaziladi. Endi jo'mrakni ochish kifoya...

Hozirgi kunda suvdan tejab foydalanish maqsadida uylarimizga o'tkazilgan trubalarga maxsus suvo'lchagichlari o'rnatilgan. Bular bizga sarflangan suv miqdorini aniqlash va uni tejab ishlatishda katta yordam beradi.

Siz bir kunda qancha suv sarflanishini o'ylab ko'rganmisiz? Masalan, bir kunda siz uyda suv ichishingiz, yuvinishingiz va ovqat tayyorlash uchun qancha suv ishlatasiz? Bilmaysiz, chunki e'tibor bermaysiz. Umuman olganda, siz juda ko'p suv ishlatasiz.

Suvni qanchalar tejashingizni bilish uchun quyidagi savollarga *ha* yoki *yo'q* deb javob bering.

1. Tishingizni yuvishda jo'mrakni uzoq vaqt ochiq qoldirasizmi?
2. Meva-sabzavotlarni yoki idish-tovoqlarni yuvishda-chi?
3. Siz har kuni dushda yuvinasizmi?
4. Oilangizda mashinani yuvish va hovlingizga suv sepish uchun ichimlik suvidan foydalanasizmi?
5. Agar ko'chada ochiq turgan jo'mrakni ko'rsangiz, uni yopishga harakat qilasizmi?
6. Sovuq kunlarda, qishda jo'mrak muzlab qolmasligi uchun uni ochib qo'yasizmi?

7. Ko'chada suv quvuri yorilib, suv oqib yotgan bo'lsa, tegishli tashkilotlarga xabar berasizmi?
8. Vodoprovodingizga o'rnatilgan suvo'lchagichni tekshirib ko'rib, bir oyda qancha suv sarflanganini aniqlaganmisiz?



“Agar bir kun uyda chiroq bo'lmasa...” mavzusida fikringizni bayon qiling.

2-DARS



5-topshiriq. Tinglang. Eslab qoling. Savollarga javob bering.

HIKOYAT

Qadimda ikki og'a-ini yashar ekan. Birining ismi Hasan, ikkinchisidiki Husan ekan. Nima bo'libdi-yu, ularning otasi betob bo'lib qolibdi. Tabibga ko'rsatishsa, u: “Olatog'da “Hayot guli” degan o'simlik o'sadi, shuni olib kelib hidlatsangiz, otangiz tuzaladi”, – debdi. “Sen otamning oldidan jilmay o'tir”, – deb Hasan oziq-ovqat, kiyim-kechagini g'amlab, uzoq safarga chiqibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Yo'lda ovqatini yeganda yebdi, kiyimi sal eskirsa tashlab, yangisini kiyibdi. Shunday qilib, o'zidagi borini tugatibdi. Och-nahor, yarim yalang'och ketayotganda oldidan podshoning odamlari chiqib qolib, uni o'g'ri, josus deb o'ylab, zindonband qilib qo'yishibdi...

Hasan qaytavermagach, Husan otasining yoniga qo'shnisini qoldirib, oziq-ovqat, kiyim-kechagini g'amlab safarga o'tlanibdi. Yo'lda ovqatini tejab, kiyim-kechagini asrabdi. Yo'l yursa ham mo'l yurib, Olatog'ga yetib borib, u yerda yashovchi cholga nonlaridan beribdi, kiyimlaridan sovg'a qilibdi. “Hayot guli”dan olib qaytib kelayotganda yo'li Hasanni bandi qilgan podsho yurtiga tushibdi. Podsho betob bo'lib, o'lim to'shagida yotgan ekan. Husan “Hayot guli”dan bir hidlatgan ekan, podsho tuzalib qolibdi.

Podsho suyunganidan Husanga to'qqiz tuya tilla-yu zar beribdi. Boz ustiga, yakka-yu yagona qizini nikohlab, yarim podsholigini ham hadya qilibdi. To'ydan bir necha kun o'tgach, Husan podshoning

yoniga kelibdi. Uni Hasan deb o'ylagan podsho: "Buni zindondan kim bo'shatdi? Axir bu o'g'ri-ku!" – deya darg'azab bo'lib, uni zindonband qilmoqchi bo'libdi? Podshoning qizi juda aqlli ekan: "Ota, oldin zindonni qarashsin, qamalgan kishi joyida bo'lmasa, kuyovingiz o'sha bo'lib chiqadi. Ana unda qamasangiz bo'ladi", – debdi. Podshoning odamlari zindonga borib qarashsa, bir kishi chalajon bo'lib yotgan emish. "Olib bormasak, podshohimiz ishonmaydi", – deb chalajon Hasanni saroyga olib borishibdi.

Husan akasini tanib, darrov "Hayot guli"ni hidlatibdi. Hasan o'ziga kelibdi va Husanni tanib, uning oyog'iga yiqilibdi. Podsho Hasanning o'g'ri emasligini va uning Husan bilan aka-uka ekanligini bilgach, qolgan podsholigini Hasanga beribdi.

Husan bu mamlakatga podshoning o'rniga podsho bo'libdi. Hasan otasining oldiga borib, otasini tuzatib, murod-maqsadiga yetibdi. Tejamkorlik, sabr-qanoat ularni maqsadlariga yetkazgan ekan.

Savollar:

1. Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Hasanning kamchiligi va Husanning yutug'i nimada ekanligining 3 ta sababini ko'rsating.



3-mashq. Gaplarni o'qing. Omonim so'zlarni aniqlab, mazmunini tushuntiring.

1. Qo'lingiz dard ko'rmasin, juda shirin osh bo'libdi.
2. Bo'sh kelma, bolam, musobaqada raqibingdan osh.
3. Qo'y, bu fikringdan qayt.
4. Semizlikni qo'y ko'taradi.
5. Hujjatga imzo qo'y.
6. Marhamat, uyga kir.
7. Kiyimingni kir qilma.
8. Yangi rusumdagi kir mashinasi ishingizni yengillashtiradi.
9. Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga.
10. Bekorga ko'zdan oqqan yosh.

4-mashq. *O't, to'p, kech* so'zlari yordamida 6 ta gap tuzing. Ikki gapdagi har bir so'z ikki xil ma'noni bildirsin.



6-topshiriq. Matnni o'qing. Berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

Oilada iqtisodiy tarbiya bilan, asosan, ota-onalar shug'ullanishadi. Tarbiya natijasida farzand oilada quyidagi yumushlarni o'zlashtiradi:

- **ota-onasiga uy-ro'zg'or ishlarida yordam berish;**
- **ota-onasining olib bergan kiyim-kechaklarining qadriga yetish;**
- **oziq-ovqatni isrof qilmaslik, tejamkorlikka rioya qilish;**
- **mehnat qilish, mehnatdan zavqlanish.**

Shundagina yoshlarda dastlabki iqtisodiy tasavvurlar paydo bo'ladi. Unda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob kabi xislatlar yuzaga keladi. Oilada bolalar ota-onasining qayerda ishlashi, bu ishning qanday mashaqqatli ekani, qanday qilib muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini his qilishi, bilishi kerak. Eng avvalo, bolalar uy yumushlari, uy xo'jaligidagi turli ishlarni bajarishda ota-onalariga yordam berishni o'rganishlari kerak. Shundagina **ular ota-onalari mehnatining qadriga yetadilar.** Mehnatni qadrlashning muhim ko'rinishi tejamkorlikdir. Bu esa, eng avvalo, ovqatlanishdan boshlanadi. Ovqatni to'kmay, isrof qilmasdan yeyish, o'yinchoqlarni buzmay o'ynash, kiyimlarni iflos qilmaslikka odatlanish lozim. **Oila a'zolari nafaqat o'zini, balki boshqalarning narsalarini, ayniqsa, atrof-muhitni asrab-avaylashi zarur...**

Savollar:

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Matnda ajratib ko'rsatilgan gaplarga e'tibor bering. Mazmunini misollar bilan tushuntiring.
3. Oila iqtisodini rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. Iste'mol madaniyati nima? Aynan nimalarni tejashimiz, nimalardan unumli foydalanishimiz kerak? Misollar keltiring.

7-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Iste'mol madaniyati

Iste'mol madaniyati bevosita oila xo'jaligini oqilona yuritish, ya'ni oila iqtisodini rejalashtirish bilan bog'liq. Har bir oilada uning a'zolari tejamkorlikka alohida e'tibor qaratishi lozim.

Oiladagi tejamkorlik – bu “xasislik” yoki “ziqnalik” emas, balki uning mazmunida oila mablag'ini qattiq nazorat qilish, halol mehnat evaziga kelgan pul va ro'zg'or anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarni qadrlash, asrab-avaylash; iqtisod ilmini chuqur bilish; ehtiyotkorlik, nafsni idora etish; manmanlikdan o'zini tiyish; har bir narsadan unumli foydalana bilish mahoratiga ega bo'lish demakdir.



Oilada tejash kerak bo'lgan buyum va narsalarning ro'yxatini tuzing. Tejamkorlik va isrofning farqini misollar bilan tushuntiring.

12-MAVZU. XATONI TAN OLISH (Tasviriy ifodalar)

1-DARS



1-topshiriq. Tinglang va munosabat bildiring.

UZR SO'RAYMAN

Po'lat Mo'min

Ancha yoshga borsam-da hatto
Yoshligimda qilganman xato –
Qarzim borday go'yo bironvda,
Vijdonimni etar bezovta.
Hammasini eslab bahuzur
Ta'zim bilan so'rayman uzr.

O'sha kezlar aqlim ekan xom,
Keksalarga bermasdim salom –

Bir kun menga buyurishdi ish,
“Voy-voy jonim, og'riyapti tish”,
Deya ko'zni qilgan edim lo'q.
O'sha tishim tushgan, hozir yo'q.
Yolg'onimdan ko'nglim behuzur,
Bo'ynim egib, so'rayman uzr.

Jismoniy tarbiya darslarin
Kerakmas deb o'ylaganim chin.

O'tar edim doim gerdayib.
Eh, bu holat juda ham ayb...
Hamon dilda xijolat kezur,
Tinchirmanmi, so'rasam uzr?

Chiniqmadi muskulim, tanim,
Esimda bor qatnashmaganim.
Hozir jonim og'riydi zir-zir,
Kelisharmi, so'rasam uzr?

Bir odamni so'kib qochgandim,
Qo'rqib bog'dan bog'ga oshgandim.
O'tolmasdim keyin bog' tomon,
Nomim bo'lgan edi ko'p yomon.
Qilmishimga yegayman ta'zir,
Kechirarmi, so'rasam uzr?

Uy ishini oldim ko'chirib,
O'qituvchim "5" qo'ydi ko'rib.
Ustozimni, demak, aldadim.
Bu ish bo'lib o'tsa ham qadim,
Yo'lga chiqib har kun muntazir –
Tayyordirman so'rashga uzr.

Gunohlarim barini o'zim,
Aytish uchun chidamas yuzim.
Ey, bolalar, iltimosim bor:
Xatolarim qilmanglar takror,
Sizlar uchun imkon bor hozir,
Keyin ketmas pushaymon – uzr.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. She'rni o'qib, mazmunini so'zlab bering.
2. Shoir nima uchun uzr so'rayapti? 3 ta sababini ko'rsating.
3. Shoir necha marta xato qilgan ekan? Xatolarini ko'rsating. Balki bu sizning xatolaringizdir?
4. She'rda ajratib ko'rsatilgan misralarni o'qing. Eslab ko'ring-chi, sizda ham shunga o'xshash voqealar bo'lganmi?
5. Shoirning uzr so'rashini qanday baholaysiz?
6. Siz xato qilib qo'ysangiz aybingizni tan olasizmi?

BILIB OLING! Narsaning nomini aniq aytmay, shu predmetni tasvirlab anglatadigan so'z birikmasi tasviriy ifoda bo'ladi. Tasviriy ifoda nutqning ta'sirchanligini oshirish maqsadida ishlatiladi. Masalan: *televizor – zangori ekran. Paxta – oq oltin. Pilla – kumush tola. Matematika – aql gimnastikasi.*



1-mashq. Tasviriy ifodalarni aniqlang. Tasviriy ifodalarni qo'shib, gaplarni ko'chiring.

1. Salomatlik posbonlari omon bo'lsinlar. Shifokorlar omon bo'lsinlar.
2. Oltin kuz. Bepoyon dalalarning fayzi boshqacha. _____
3. Oq oltinni oltin qo'llar yaratadi. _____
4. Po'lat qushim uchdi-ketdi, Bir zum o'tmay oyga yetdi. _____
5. Kinoyulduzlardan kimlarni bilasiz? _____
6. Maktabimiz qaldirg'ochlari bugun uchirma bo'lishdi. _____
7. Ko'rgazmada mo'yqalam sohiblari bilan uchrashuv bo'ldi. _____

 **2-mashq.** Berilgan so'zlarning tasviriy ifodalarini topib, ularni qo'shib ko'chirib yozing. Ular ishtirokida 3 ta gap tuzing.

Fazogirlar – _____
Makkajo'xori – _____
Qushlar – _____
Yo'lbars – _____
Pilla – _____
Kitob – _____

Tasviriy ifodalar: qanotli do'stlar, ilm kaliti, samo lochinlari, dala malikasi, hayvonlar podshosi, kumush tola.



3-topshiriq. O'qing, tahlil qiling va munosabat bildiring.

Muvaffaqiyat qarshisidagi to'siqlar

Harvard universiteti professori Devid Deming 37 yil mobaynida muvaffaqiyat qozonishda inson fe'l-atvorining ahamiyatini tadqiq qilgan. Uning fikricha, ishdagi mehnat samaradorligining 58 foizi uchun insondagi hissiy aql-zakovat javobgar ekan. Hissiy aql-zakovatning yetishmasligi natijasida odamda quyidagi salbiy fe'l-atvor omillari ko'zga tashlanadi.

Qo'rqqoqlik, muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish, kibr, oqimga qarshi suzish, aybdor izlash, qiziqqonlik, hasrat qilish, ishonuvchanlik, hadeb uzr so'rash.

Ajratib ko'rsatilgan omillarga diqqat qiling. Bunday omillardan ba'zilarini har birimizda uchratish mumkin. To'g'rimi? Misollar keltiring.



4-topshiriq. Matnni o'qing va munosabat bildiring.

Tuya va bo'taloq'ining suhbatlari (Ibratli hikoyat)

“Bir savol menga hech tinchlik bermayapti”, – dedi bo'taloq onasining pinjiga suqilib.

“So'ra, bo'taloq'im. Seni qiynayotgan o'sha narsa nima ekan?” – qish quyoshining zaif nurlarida toblanib yotgan tuya bolasiga razm soldi.

“Bizga bahaybat o'rkachlarning nima keragi bor?” – dedi bo'taloq. “Bolajonim, tuyalar sahro jonzoatlari. O't-o'lansiz, taqir sahroda oylab jon saqlashimiz uchun o'rkachlarimizda suv va yemish olib yurishga majburmiz“, – dedi onasi unga. “Unda nega oyoqlarimiz uzun va tuyoqlarimiz yassi, yumaloq?” – yana qiziqib so'rashda davom etdi bo'taloq. “Ular qumli barxanlararo chaqqon yurishimizga moslashgan. Biz ular yordamida sahroning chinakam kemalariga aylanamiz“, – dedi onasi. “Unday bo'lsa, bizga uzun kipriklarning nima keragi bor? Ular ba'zida ko'zlarimga xalaqit qiladi“, – bo'taloqning bu savolidan keyin ona tuya bo'ynini ko'tardi va biroz g'ururlandi.

“Bolam, bu quyuq va uzun kipriklar sahrodagi chang-to'zonda ko'zlarimiz qo'riqchilaridir“, – dedi onasi. Shundan so'ng qiziquvchan bo'taloq bir fursat o'yg'a tildi.

“Tushundim! Ulkan o'rkachlar sahroda jon saqlash uchun yordam beradi, uzun oyoqlarimiz qumli manzillarni yaqin qiladi. Kipriklar ko'zimizni sho'rxok to'zonlardan asraydi. Unda ayting-chi, biz bu hayvonot bog'ida nima qilyapmiz o'zi?!” – biroz jimlikdan so'ng yana onasidan so'radi bo'taloq.

So'nggi savoldan so'ng ona tuya mum tishlab qoldi va bo'ynini egib, chuqur xayolga cho'mdi.

Qissadan hissa shuki, xato yo'lni tanlash – bilim, iste'dod va tajribani havoga sovurish bilan barobardir.



“Xatolarimni tan olaman” mavzusida fikringizni yozma bayon qiling.



5-topshiriq. Matnni o'qing. Munosabat bildiring.

OLMOS TO'LA HOVLI

Afrikada Hafiz ismli bir dehqon bo'lar edi. Kunlarning birida Hafiz hovlisidan makkajo'xori donidek keladigan jilodor tosh topib olibdi. Zargarga olib borsa, usta bu qimmatbaho tosh olmos ekanini aytib, dehqonga bir hamyon to'la tanga pul uzatdi. Hafiz hayajonlanib ketdi. Axir bir yil ter to'kib ishlasa ham buncha pul topa olmas edi.

“Agar mana shunday olmosdan bosh barmoqdek keladiganini topsang bormi, uning puliga butun boshli shaharchani sotib olishing mumkin. Mabodo, omading kulib mushtdek keladigan olmos topsang, butun mamlakatning mol-davlati seniki bo'lishiga ishonaver. Aytishlaricha, janub tomonlarda bunday qimmatbaho toshlar serob ekan”, – dedi zargar.

O'sha tun Hafizning ko'ziga uyqu kelmadi.

U tong otishi bilan o'z hovlisini sotishini ma'lum qildi. O'sha kuniyoq mol-mulkini arzon-garovga pullab, ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib, janubga ravona bo'ldi. Janubda omadi kelmagach, sarson-sargardon bo'lib, butun Afrikani kezib, olmos qidirdi. Afsuski, tariqchalik ham olmos topish unga nasib etmadi. Hafiz chor-nochor uyga qaytayotib, qilgan ahmoqligidan darg'azab bo'lib, o'zini daryoga tashladi.

Uning hovlisini sotib olgan odam esa erta bahorda, yerni kengaytirish uchun hovliga ketmon soldi. Bir mahal yerda nimadir kamalak misol jilolanib, uning ko'zini oldi. Bu – olmos edi. Bir paytlar Hafiz yashagan hovli olmosga to'la bo'lgan ekan.

Qissadan hissa:

1. Imkoniyat doimo o'z yurtida bo'ladi.
2. Shukur qilsak, to'g'ri munosabatda bo'lsak, har birimiz aslida olmos to'la zamin ustida yashayotganimizni anglab yetamiz
3. Boshqa yurtning qand-qursi doim shirin tuyiladi. Biroq boshqa elda ham tosh-tarozi borligini unutmaslik kerak.
4. Odamlar o'z imkoniyatlarini payqamagan yoki unutgan kundan boshlab hayotdan noliydilar.

5. Imkoniyat doim ham qayta-qayta berilmaydi. Unga bir marotaba duch kelish mumkin.

Savollar:

– *Hafizning xatosi sabablarini tushuntirib bering.*

– *“So‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman” maqolining mazmunini tushuntiring.*

 **3-mashq.** Berilgan tasviriy ifodalarning ma’nosini aniqlang. Ularga mos so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Salomatlik posbonlari –
2. Zangori olov –
3. Po‘lat ot chavandozlari –
4. Zangori kema kapitanlari –
5. Charmqo‘lqop ustasi –
6. Aql gimnastikasi –
7. Mo‘yqalam sohiblari –
8. Oq oltin tog‘lari –
9. Yashil boylik –
10. O‘rmon malikasi –
11. Xonadonning yulduzi –

 **4-mashq.** 3-mashqda berilgan tasviriy ifodalardan 5 tasiga gap tuzing.

6-topshiriq. Xatoni tan olmaslik va xatoni tan olish haqida o‘zaro suhbatlashing. Fikringizni misollar bilan isbotlang.

 **“Xatoni tan olish – mardning ishi”** mavzusida intervyu matnini tuzing .

1-DARS

13-MAVZU. SAYOHATNING FOYDASI (Nutq uslublari. Soʻzlashuv va badiiy uslub)



1-topshiriq. Tinglang va topshiriqlarni bajaring.

TARIXIY SHAHARLARGA SAYOHAT

Oʻzbekiston oʻzining uzoq oʻtmishi, oʻziga xos tarixiga ega davlatlar qatoriga kiradi, u tarixdan dunyo sivilizatsiyasiga munosib hissasini qoʻshib kelmoqda. Hozirgi kunda esa tarixni oʻzida aks ettirgan bir qancha “muzey-shahar”lar bilan butun dunyo nigohini oʻziga qaratib kelmoqda. Ana shunday “muzey-shahar”lar bilan birin-ketin tanishamiz.

Samarqand – Oʻzbekistonning janubi-gʻarbida joylashgan tarixiy-afsonaviy shahardir. Rivoyatlarga koʻra bu shaharni Aleksandr Makedonskiy qurdirgan, Sohibqiron Temurbek esa ilk bor poytaxtga aylantirgan. Arxeologlarning fikricha, uning yoshi 2750 yildan ortiqroq.

Mustaqillik yillari Samarqand shahridagi arxitektura yodgorliklarini tiklash va taʼmirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va taʼmirlash boʻyicha katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, qaytadan barpo etilgan Al-Buxoriy, Moturidiy va boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir.

“Samarqand – sayqali roʻyi zamin ast”, yaʼni Samarqand yer yuzining sayqali deb bejizga aytilmagan. Chunki Samarqand koʻplab tarixiy maskanlarni oʻzida jo qilgan tarixiy ansambl, desak xato qilmaymiz. Boisi Samarqand tarixiy va meʼmoriy obidalarga boy azim shahar boʻlib, unda Afrosiyob shaharchasi, Ulugʻbek rasadxonasi, Hazrati Xizr masjidi, Bibixonim majmuasi, Registon maydoni; Ulugʻbek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Ruhobod maqbarasi, Goʻri Amir maqbarasi, Oqsaroy maqbarasi, Doniyor paygʻambar maqbarasi, Xoʻja Ahrori Valiy maqbarasi, Imom al-Buxoriy maqbarasi, Imom al-Moturidiy maqbarasi, shuningdek, koʻpgina boshqa kichik madrasa, maqbara va masjidlar bor. Bu maqbaralar musulmon-sharq arxitekturasi taʼsirida shakllangan, noyob namunalari hisoblanadi.

Xiva – Oʻzbekistonning shimoli-gʻarbida, Amudaryoning chap sohilida joylashgan tarixiy shahar boʻlib, uzoq yillar Xiva xonligining poytaxti

bo'lgan. Shahar ikki qismdan: Dishan qal'a va Ichan qal'adan iboratdir. Shaharning qadimgi qismi juda ko'p arxitektura yodgorliklariga boy. Ichan qal'a Sharqning ekzotik shahar timsolini o'zida saqlab qolgan afsonaviy shahardir.

Xivani bejizga "Ochiq osmon ostidagi muzey" deb nomlashmagan, chunki unda Masjid va Saidboy madrasasi, Polvon darvoza, Olloqulixon madrasasi, Qutlug'murod inoq madrasasi, Olloqulixon karvonsaroyi, Anushaxon hammomi, Abdullaxon madrasasi, Tosh Hovli(Olloqulixon saroyi), Oq masjid, Juma masjid minorasi, Said Alovuddin maqbarasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kalta Minor minorasi, Ko'hna Ark, To'ra Murod minorasi, Sherg'ozixon madrasasi, Bog'landi masjidi, Arabxona madrasasi kabi ko'plab tarixiy obidalar bor. U o'zining husni va tarixiy-afsonaviy jozibasi bilan butun dunyo sayyohlarini o'ziga rom etib kelmoqda.

Buxoro – O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biri bo'lib, o'rta asrlarning 140 dan ortiq arxitektura yodgorliklarini o'zida saqlagan "muzey-shahar"dir. Buxoroga borgan kishi tarixga sayohat qilgandek bo'ladi, chunki unda bir-biriga o'xshamagan, betakror tarixiy obidalar bisyor. Ayniqsa, Bolohovuz ansambli, Ismoil Somoniy maqbarasi, Xo'ja Zaynuddin majmuasi, Poyi kalon ansambli, Labihovuz ansambli, Sitorayi Mohi Xossa, Buxoro Amiri saroyi kabi me'moriy majmualar bugungi kunda ham barchaning diqqatini Buxoroga qaratgan.



2-topshiriq. Savollarga misollar bilan javob bering.

1. O'zbekistonning yana qanday tarixiy shaharlari haqida bilasiz?
2. Samarqand, Xiva, Buxoroga borganmisiz?
3. Tarixiy shaharlar nimasi bilan qiziqarli?



1-mashq. Matn asosida berilgan jummalarni davom ettiring va daftaringizga ko'chiring.

“SABABINI TOP” O‘YINI

1. O'zbekistonda tarixiy shaharlar ko'p, chunki
2. "Samarqand yer yuzining sayqali" deb ataladi, chunki

3. Xiva afsonaviy shahar, chunki
4. Buxoro “muzey-shahar”, chunki
5. Sayyohlar tarixiy shaharlarga sayohat qilishni yoqtiradi, chunki
6. Samarqand, Buxoro va Xivadagi tarixiy obidalarda musulmon-sharq arxitekturasiidan foydalanilgan, chunki
7. Sayohat qilish insonning dunyoqarashini rivojlantiradi, chunki
8. Keyingi yillarda O‘zbekistonga sayyohlar tashrifi ko‘paymoqda, chunki

BILIB OLING!

Oilada, ko‘cha-ko‘yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi **so‘zlashuv uslubi** sanaladi. So‘zlashuv uslubi **adabiy** va **oddiy so‘zlashuv** uslublarini o‘z ichiga oladi.

Adabiy til me‘yorlariga qat‘iy amal qilingan so‘zlashuv uslubi **adabiy so‘zlashuv uslubi**, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlashuv uslubi esa **oddiy so‘zlashuv uslubi** hisoblanadi.

So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida bo‘ladi.

Ma‘lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo‘l bilan tinglovchiga estetik ta‘sir etuvchi nutq uslubi **badiiy uslub** sanaladi. Ya‘ni badiiy adabiyot, she‘riyat uslubi hisoblanadi.

Obrazlilik va estetik ta‘sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.



2-mashq. So‘zlardan foydalanib gaplar tuzing va daftaringizga yozing.

1. bilmas, ilgari, men, edi, o‘zbek tili. 2. o‘z, sudrab, olib kel, sen. 3. xalq, mehnat qil, fidokorona. 4. tinimsiz, u, ishla, o‘z usti. 5. sokin, Don, oqmoq, daryo. 6. yiqilmoq, ohista, Anvar. 7. aka, kech qol, oz, bugun. 8. so‘zla, ish, gap, oz, ishla, ko‘p. 9. birpas, u, jim qolmoq. 10. yoqmoq, tonggi, juda, shabada, dil.



3-topshiriq. “Sayohatda” mavzusida o‘zaro suhbatlashing.



Tarixiy shaharlardan biri haqida ma’lumot bering.

2-DARS



4-topshiriq. Matnning tinglang va topshiriqlarni bajaring.

SAYOHAT TAASSUROTлари

Biz o‘tgan yakshanbada sinfdoshlarimiz bilan “Zangi ota” ziyoratgohiga ziyorat qilish uchun bordik. Ziyoratgohga kirishimiz bilan o‘ziga xos, mungli, og‘ir harorat vujudimizni qoplab oldi. Xuddi tarix ko‘z oldimizda gavdalangandek bo‘ldi. Chunki masjid peshtoqlaridagi Qur‘on oyatlari unga o‘zgacha shukuh berib turardi. Ayniqsa, peshtoqlardagi jimjimador naqshlarni aytmayisizmi, lol qolasiz. Ziyoratgohni kezarkanmiz, xayolan Hazrati Zangi ota bizni kuzatib turganday bo‘lardi. Ziyoratni, avvalo, Zangi ota qabriga duo-fotiha o‘qishdan boshladik. Xonaqohlar va ziyoratgoh sayrgohini aylandik. Ayniqsa, sayrgoh o‘rtasidagi shifobaxsh buloq yonidagi hovuzda suzib yurgan baliqlarni tomosha qilib, rosa zavqlandik. Chunki buloqda turli: oq-sariq, olovrang-oqish, qizil-oqish chipor baliqlar suzib yurishardi. Ularni tomosha qilib ruhan tiniqasan kishi. Ziyoratgohning eng hayratlanarli joyi tarixiy, milliy liboslar, zeb-u ziynatlar sotiladigan kichik-kishik do‘konchalaridir. U yerda turli tarixiy o‘yinchoqlar, liboslar, suvenirlar, taqinchoqlar, milliy liboslar, diniy kitoblar sotiladi. Tarixiy buyumlarni sotib olayotgan chet ellik sayyohlarning hayratlanishini, o‘zbeklarning milliy san’atlariga lol qolayotganini ko‘rib, millatingdan iftixorlik tuyg‘usi butun borlig‘ingni qoplab oladi. Shunday bir millat avlodi bo‘lganingdan, shunaqangi buyuk zotlar davomchisi ekanligingdan g‘ururlanasan kishi. Men o‘ziga xos tarixi va madaniy merosi bor Vatanimni sevaman.



3-mashq. Matndan foydalanib ushbu gaplardagi nuqtalar o‘rnini to‘ldirib yozing.


1. U yerda turli tarixiysotiladi. 2. Ziyoratni, avvalo, boshladik. 3. Buloqda turli: baliqlar suzib yurishardi. 4. Shunday bir

millat g'ururlanasan. 5. Ayniqsa, peshtoqlardagi aytmaysizmi, lol qolasiz. 6. Sayrgoh o'rtasidagi..... tomosha qilib rosa zavqlandik. 7. Ziyoratgohga kirishimiz bilan harorat vujudimizni qoplab oldi.

 **5-topshiriq. Matn yuzasidan savollarga javob bering.**

1. Matndagi qaysi o'rinlar sizga yoqdi?
2. Sayohatning foydalari haqida gapiring.
3. Tarixiy joylarga sayohat qilish insonga qanday ma'naviy oziqa beradi?

 **6-topshiriq. Siz ham sayohatga borgan joyingiz haqida gapirib bering.**

 **7-topshiriq. Quyida berilgan suhbatni ona tilingizga tarjima qilib, daftaringizga yozing.**

SUHBAT

- Siz bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?
- Men bo'sh vaqtimda sayr qilishni, kitob o'qishni yoqtiraman.
- Siz-chi? Bo'sh vaqtlaringizda nimalar qilasiz?
- Men, odatda, uyda bo'laman. Turli kitoblarni o'qishni yaxshi ko'raman.
- Qanday asarlarni o'qishni yoqtirasiz?
- Men tarixiy, sarguzasht va biznesga oid kitoblarni o'qishni yoqtiraman.
- Menga ham kitoblaringizdan birortasini o'qishga berib tura olasizmi?
- Albatta, qanaqa kitob bo'lsin?
- Qiziqarli va biznesga oid bo'lsin!

 **8-topshiriq. Maqol va ibratli so'zlarni izohlang.**

1. Qush uyasida ko'rganini qiladi. 2. Bilimsiz bir yashar, bilimli ming yashar. 3. Bo'linganni bo'ri yer. 4. Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar. 5. Maqtanganning uyiga bor, kekkayganning to'yiga. 6. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak. 7. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas. 8. Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmaydi.

 **4-mashq.** Nuqtalar o'rniga quyidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring va qo'shma so'zlarning tagiga chizing.

1. Tumanlararo musobaqada..... tumani o'quvchilari g'olib chiqdi.
2. Nurota tumanida..... zavodi bor.
3. Angren tumani paxta tayyorlash rejasini avval bajardi.
4. Ko'mir koni xalqimizga yetkazib bermoqda.
5. Dam olish kuni biz buvamning bordik.
6. Bizning bog'imizda va bor.
7. Xalq Ergash Jumanbulbul Sharof Rashidov tumanida tug'ilgan.

(Yangiyo'l, uyiga, anor, muddatidan, shoiri, anjir, toshko'mir, yog')

9-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Rezyume – bu mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la oladigan shaxsning qobiliyatlari ko'rsatiladigan hujjat.

REZYUME	
Amirov Botir Umar o'g'li MAQSAD: doimiy ish lavozim: menejer	SHAXSIY MA'LUMOTLAR Tug'ilgan sanasi: 1995.17.01. Telefoni: +998175555555 E-maili: s_amirov95@mail.ru Yashash manzili: Toshken shahri Olmazor tumani Taraqqiy ko'chasi 17-uy Oilaviy holati: oilali <hr/> ASOSIY MA'LUMOTLAR Ta'lim olgan maskani/daraja: Toshkent iqtisodiyot kolleji Menejment yo'nalishi Ta'lim olgan maskani/daraja: Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Menejment fakulteti / bakalavr <hr/> ISH TAJRIBASI Tashkilot nomi/ lavozimi:

	<p>08.2015 – AYNI PAYTDA. “Sanjar tekstil” OAJ/ menejer</p> <hr/> <p>SHAXSIY YUTUQLARI Turkiyaning “Urxun–Ali” firmasi bilan shartnoma tuzdim. Kompaniyaning savdo hajmini 19 foizga oshirdim. 2019-yil kompaniyaning “Yosh eng faol xodim” nominatsiyasi bilan taqdirlandim.</p> <hr/> <p>QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLAR Shaxsiy sifatlar: Hozirjavob, kirishimli, maqsad sari intiluvchan, mas’uliyatli. IT sohalari bo‘yicha chuqur bilimga egaman va ingliz, turk tillarida gaplasha olaman. Qiziqishlar: Sport bilan shug‘ullanaman, biznesga oid va badiiy asarlarni o‘qiyman.</p> <hr/> <p>TAVSIYACHILAR “Sanjar tekstil” OAJ rahbari Alimova Nargiza Ulug‘bek qizi Tel: +998177777777</p>
<p>FOTOSURAT</p>	



O‘zingiz haqingizda namunaga asoslanib rezyume yozing.



14-MAVZU. SAVDONING XOSIYATI
(Rasmiy va ilmiy uslub)

1-DARS



1-topshiriq. Matnni o‘qing va mulohaza qilib ko‘ring.

BIZNESNI QANDAY TANLAYDILAR?

Biznesni tanlashda inson o‘ziga quyidagi savollarni berishi kerak:

1. Men nimani ma’qul ko‘raman:
 - a) narsa-buyumlar bilan shug‘ullanishni;
 - b) insonlar bilan ishlashni;
 - d) g‘oya, fikrlar bilan bog‘liq ishlarni.

2. Yakka tartibda ishlashni afzal ko'ramanmi yoki jamoa tartibidami?
3. Jismoniy kuch talab etiladigan ishni uddalay olamanmi?
4. Tashkilotchilik, rahbarlik qobiliyatiga egamanmi?
5. O'z mehnatimning moddiy natijasini nimalarda ko'raman? **[A]**

Hayot yo'lida faoliyat yo'nalishini tanlashdagi xato har bir insonga moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham ancha qimmatga tushadi. Omadsizlik ishi yurishgan va yurishmay qoladigan kishilar o'rtasidagi farqni juda yiriklashtirib yuboradi. Shu sababli tadbirkor insonlar, avvalo, kuchi, bilimi, jismoniy yoki intellektual mehnatga qobiliyatini anglab olib, keyin biror ishga qo'l uradilar. Tadbirkor so'zining o'z tarixi bor. Ilgari podshohlar saroyida "dabirkor" lavozimi bo'lgan. Ularning vazifasi davlat ishlariga doir hujjatlarni yozish, eng nozik va qaltis ishlarni hal qilishda shohlarga maslahat berish bo'lgan. Shundan bo'lsa kerak, har qanday vaziyatda to'g'ri, eng yaxshi yechim topadigan uddaburon odamlarni tadbirkor deb atashadi. Tadbirkor kishilar qarovsiz joylarni obod qiladilar, o'zlariga ham, xalqqa ham foyda keltiradilar. **[B]**



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Matndan foydalanib, "biznes" so'ziga izoh bering.
2. Tadbirkorlikka qaratilgan qanday qonun va qarorlarni bilasiz?
3. O'zingiz taniydigan tadbirkor kishilar va ularning kasblari haqida so'zlab bering.
4. Matnda A va B belgisi bilan belgilangan qismlar uslubiga ko'ra qanday farqlanishini tushuntiring.



1-mashq. Kirish va xulosa qismini o'zaro bog'lab, matni to'ldiring.

"Kor" tojik tilida ish degan ma'noni bildiradi. Demak, tadbirkor ishning ko'zini biladigan kishi.

.....
.....

Respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

BILIB OLING! Ilmiy uslub fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar yoziladigan uslub bo'lib, daliliy ma'lumotlar, qoidalar, ta'riflarga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos atamalaridan, sanalar, ma'lumotlardan foydalaniladi.



3-topshiriq. Matnni o'qing va davom ettiring.

Savdo turlari

Firma rahbarlari xaridorlarni o'z mahsulotlariga qiziqtirish uchun har doim savdoning yangi usullarini izlab topadilar. XX asrning 80-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlari ishlab chiqarish kompaniyalari do'kondan tashqarida bo'ladigan savdo tizimini tashkil etdi. Bu tizim xaridorlarga uydan chiqmasdan mahsulotlarni sotib olish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Savdoning bu turida ishlab chiqarish kompaniyalari va xaridorlar bir-birlari bilan video va kompyuterlar orqali muloqot qilishadi. Bu tizimning qulayligi shundaki, ...



4-topshiriq. Tinglang va matn yuzasidan bahs-munozara yuringing.

O'zbekiston bozorlari

O'zbekistonda bozor – hayot ko'zgusi. “Bu yurt bozorlarida bo'lmagan odam bu xalq haqida ko'p narsa bilmaydi”, – deyishadi g'arbliklar.

Yangi tizim yangicha madaniyatni ham boshlab keldi. Bugun bozorda rang-barang muomala madaniyatining shohidi bo'lasiz. Biroq bir narsa aniq ko'zga tashlanadi: avvalgi badqovoq savdogarlar, “Olsang shu, olmasang – katta ko'cha”, – deya g'o'dayib turadigan sotuvchilar ancha kamaygan. Bu raqobat va mahsulotning ko'payganidir.

Xaridorlar esa savdo ahlining muomala madaniyati haqida turlicha fikrdalar.

Muomala madaniyati insonning qiyofasini belgilaydi. Muomala madaniyati insonning o'qimishliligiga, uning hayotdan olgan tajribasiga, oiladagi tarbiyaga bog'liq.

Bozordagi sotuvchilar esa xaridorlar bilan yaxshi muomala qilishga harakat qilishlarini aytisharkan, ba'zan narx-navolar ustida kelishmovchiliklar ham bo'lib turishini tan olishadi.

Bozordagi sotuvchilar bilan xaridorlar o'rtasidagi muomala jamiyat muhitiga ham ta'sir etadi. Jamiyatdagi muhitning naqadar sog'lomligi qay darajadadir bozor ahlining xaridorlar bilan muomalasiga ham bog'liq.

Har birimizning yo'limiz kun yoki kunora bozorga tushadi. Bozor odamlarning o'zaro muomalasi, savdo-sotiq qanday natija bilan yakunlanishi, xaridorning kayfiyatiga ta'sir qiladi.



2-mashq. Mamlakatlar va ularning pul birliklari nomini jadvalga tushiring.

Mamlakatlar nomi	Pul birliklari nomi
O'zbekiston Respublikasi	So'm
.....



Sotuvchi va xaridor munosabatlari bo'yicha suhbat tuzing.

2-DARS



5- topshiriq. Matnni tinglang va qaysi uslubda yozilganini tushuntiring.

BOZOR VA PUL

Bozor – insonlarning oldi-sotdi muomalasi amalga oshiriladigan joy. Pul ixtiro qilingunga qadar odamlar oldi-sotdi muomalasini o'zaro mol ayirboshlash orqali bajarar edilar. Keyinchalik barter deb nomlangan bu usulda har kim o'z molini qiymatiga yarasha boshqa bir molga (don-dun,

kiyim-kechak, ro'zg'or ashyolari va hokazo) almashtirib ketar edi. Hozir ham bu usul katta korxonalarda, firmalarda o'zaro bitim tuzish orqali amalga oshiriladi. Pul ixtiro qilingach, u savdo-sotiq muomalasining asosiy vositasiga aylanadi. Pul avval oltin, kumush tangalar shaklida zarb etilgan, keyinchalik qog'oz pullar kashf etilgan. Qog'oz pullarning qiymati jahondagi barcha mamlakatlarda eng qimmatbaho metall – oltinning qiymati bilan belgilanadi. Qaysi mamlakatda sanoat, ishlab chiqarish rivojlansa, ishlab chiqarilgan mahsulotlar xaridorgir bo'lsa, shu mamlakat pullariga talab katta bo'ladi. Bu uning pullari qiymatining ortib ketishiga olib keladi. Pul qiymatining pastga tushib borishi esa inflatsiyaga (pulning qadrsizlanishiga) olib keladi.



3-mashq. Savollarga javob yozing va izohlang.

1. Matn mazmuni asosida bozor va pulni tavsiflang.
2. Matndan kirish birikmali gaplarni ko'chirib yozing va yozilishini tushuntiring.

.....

3. Qog'oz pullarning qiymati va inflatsiya haqida tushuncha bering.



4-mashq. Berilgan so'zlar va birikmalarni ona tilingizga tarjima qiling.

Iqtisodiy faoliyat, moliya bozori, xarajatlar rejasi, sof daromad, savdo aylanmasi, foyda, tejab-tergash, sotib olish imkoni, hamkorlik.

Iqtisodiy faoliyat	...



5-mashq. Qavsdagi so'zlar o'rniga *tadbirkor* va *tadbirkorlik* so'zlaridan mosini qo'yib ko'chiring.

(*Предприниматель*) ishning ko'zini biladigan kishidir. Qayerda muammo bo'lsa, (*предпринимательство*) yordam beradi. (*Предприниматели*) qarovsiz joylarni obod qiladilar, o'zlariga ham, xalqqa ham foyda keltiradilar. Shuning uchun respublikamizda (*предпринимательство*)

rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan (*предпринимательство*) rivojlantirish bo'yicha bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

  **6-topshiriq.** Tinglang. Eslab qolganlaringizni gapirib bering.

TURKISTONDA PULNING JORIY ETILISHI

Turkiston mintaqasida pul muomalasining joriy etilishi juda qadimiy tarixga ega. Mashhur tarixchi Gerodot: "Bilishimcha, eng birinchi bo'lib lidiyaliklar tanga zarb etishgan hamda oltin va kumush tangalarni muomalaga kiritishgan", – degan fikrni aytib o'tgan. Biroq Turkiston hududida miloddan ilgarigi bir minginchi yillardayoq yombilar (oltin va kumush quymalar) muomala vositasida qo'llangani aniq dalillar bilan isbotlangan. Ushbu yombilar tangalar kabi o'zlarining hajmi va og'irligiga ko'ra farqlangan. Demak, pul muomalasi ilk bor Turkiston mintaqasida paydo bo'lgan, so'ng boshqa o'lkalarga tarqalgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Pul muomalasining kelib chiqishi haqida so'zlab bering.
2. Turkiston mintaqasida pullar qanday atalgan?
3. Matndagi sonlarning ma'nolarini izohlang.

7-topshiriq. Eslab qoling va unga amal qiling.

Iqtisod odobi

1. Mol-u dunyosi ko'p bo'lgan kishi boy emas, balki isrofdan saqlanib iqtisod tejamini bilgan kishi boydir. Shuning uchun foydasiz yerlarga va yaramas ishlarga bir tiyin ham sarf qilmang.
2. Bir narsani bir yo'la ko'proq olib qo'ymang. Agar zarurligi sababli nasiyaga olgan bo'lsangiz, pulini tezroq topshiring. Qarzdor bo'lmang.
3. Oladigan narsangizning bahosini yaxshi biling, olishda aldanib qolmang. Kerak bo'lgan narsangizni, mumkin bo'lsa, o'zingiz qarab oling. O'zingizga kerak bo'lmagan narsalarni arzonligiga qiziqib olib qo'ymang.

4. Kirim-chiqimlaringizni bir daftarga yozib, bu daftarni har vaqt ko'zdan kechirib turing, chunki bu daftar iqtisod va tadbir o'lchovidir. Sarflagan pullarini hisoblab turgan kishi keraksiz yerlarga pul sarflashdan o'zini saqlaydi.

5. Chiqimingiz kiringingizdan ortiq bo'lmasin. Chiqimingiz ortiqcha bo'lsa, qayg'u keltiradi.

6. Juda zarur bo'lmaganda birovdan qarz olmang. Kishining kimligini sinamasdan turib unga qarz bermang.

(“Donishmandlar odob-axloq to'g'risida” kitobidan)



O'zingiz bilgan savdo turlari haqida ma'lumot yozing.

1-DARS

15-MAVZU. ODAMIYLIK BAHOSI
(Publitsistik uslub)



1-topshiriq. Matnni tinglang. Asosiy fikrlarni yozib boring.

ODAMIYLIK BAHOSI **(Bo'lgan voqea)**

Bu hodisa Hindiston janubidagi Malappuram shaharchasida sodir bo'lgan ekan. Shaharda mehmon bo'lib turgan shimollik tadbirkor Orif Vani kechki ovqat uchun oynavand “Jannat” nomli tamaddixonaga tushib, uning uchun hozirlangan stolga o'tirar ekan, restoran va ko'chani ajratib turgan oynada mo'ltillab turgan qarog'larning aksini ko'rdi. Tashqarida chamasi 6 yoshlardagi tilanchi bolakay o'zidan kattaroq qiz bilan Orifga tikilib turardi. Ularning ko'zlariga jo bo'lgan xatar ochlik edi. Orifning ularga ichkariga kirishlari mumkinligini bildirgan iliq ishorasidan so'ng boshqa mijozlarning ta'bi xira bo'ldi. Qo'rqa-pisa yurib kelishar ekan, isqirt kiyim-boshidan uyalayotgan go'daklar ularni taklif qilgan kishidan ko'zlarini uzishmadi. Yetib kelgach esa bir-birining pinjiga kirib ketgancha, nim tabassumli odam qarshisida mum tishlashdi. To'zg'igan sochlar orasidagi olazarak ko'zlar

stoldagi biryaniga qadaldi. Orif ularga ham biryani buyurtirdi. Bolakay stolga o'tirmoqchi bo'lganida qizcha oldin qo'llarini yuvishlari kerakligini aytib, yuz-qo'l yuvgich tomon yurdi. Stolga engashgan bolajonlar shosha-pisha hovuri ko'tarilib turgan ovqatni og'izlariga sola boshlashdi. Qanchalar didsizlik bo'lmasin, och bolalarga shoshib ovqatlanish yarashar ekan. Idishdagi oxirgi guruchgacha tozalab, mango sharbatini so'nggi tomchisigacha ichib, bolalar o'rinlaridan qo'zg'alishdi va istarali amakiga jilmayganча "rahmat" aytib, shoshilib chiqib ketishdi.

Bu voqeani barcha: mijozlar-u xizmatkorlar, ikki gadoyning ichkariga kirgani to'g'risida bilib yugurib kelgan boshqaruvchi ham kuzatar edilar. Orif ovqatlanib bo'lgach, hisobni so'radi. Qo'llarini quritib, stoldagi hisobni oldi. Hisobda to'lov miqdori emas, xat qoldirilgan ekan. "Janob, hozircha bizda odamiylikning bahosini hisoblay oladigan mashina yo'q. Yaxshiliklar o'zingizga-da hamroh bo'lsin!" Xatdagi so'zlarni o'qigan Orif Vani duv-duv to'kilayotgan ko'z yoshlarini hech kimga sezdirmaslik uchun shoshganicha o'z xonasiga ko'tarildi.



1-mashq. Yozib olgan so'zlaringizdan foydalanib, matnga reja tuzing. Tuzgan rejangizning har bir bandiga sarlavha qo'ying.

1. Kirish.....
2. Asosiy qism.....
3. Xulosa.....



2-topshiriq. Savollar va topshiriqlar asosida o'zaro suhbatlashing.


1. Sizningcha, muallif matnni nega shunday nomlagan?
2. Lug'atdan foydalanib "odamiy" so'zining ma'nosini izohlang.
3. "Odamiy" so'zi bilan bog'liq qanday maqollarni, asarlar nomini bilasiz?
Matn qaysi uslubda yozilgan?

BILIB OLING! Kundalik turmushimizning dolzarb masalalarini ommaga yetkazishda qo'llaniladigan nutq uslubi **publitsistik uslub** deb ataladi. Publitsistik uslub ta'sirchanligi, axborot va ma'lumotlarga

boyligi bilan ajralib turadi, gazeta va ommabop jurnallar, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar shu uslubda yoziladi.

 **2-mashq.** Matndan ta'sirchanlikni ifodalovchi til vositalarini ko'chirib yozing.



.....

 **3-mashq.** Matnda berilgan bolalarning tashqi ko'rinishini tasvirlang.



- A. Opa –
 B. Uka –


 **Yodingizda qolgan bolaligingizdagi qiziqarli voqea haqida yozing.**

2-DARS

  **4-mashq.** Jadvalga so'zlashuv va publitsistik uslubning farqli xususiyatlarini yozing. Fikringizni “Odamiylik bahosi” matnidan misollar keltirib izohlang.

So'zlashuv uslubiga xos xususiyatlar	Publitsistik uslubga xos xususiyatlar

  **3-topshiriq.** Alisher Navoiyning mashhur “Odamiy ersang” deb boshlanadigan tuyug'ini tinglang va mazmunini tushuntiring.

 **5-mashq.** Insonlardagi yaxshi fazilatlarni yozing va ularni ona tilingizda tarjima qiling.

Oliyjanob fazilatlar	Tarjimasi

 Davriy matbuotdagi (gazeta, jurnal, internet manbalaridan) odamiylik haqida ma'lumotlar toping va izohlang.

1-DARS

16-MAVZU. OTA IBRATI (O'tilganlarni takrorlash)

 **1-topshiriq.** Matnni tinglang va asosiy fikrlarni eslab qoling.

OTA IBRATI

O'shanda hali bola edim. Onam mashaqqatli ish kunidan qaytib, har kech biz uchun non-osh pishirardi.

Bir kuni onam shosha-pisha kechki ovqatni tayyorladi va birozdan keyin uni non bilan birga olib kelib, otamning oldiga qo'ydi. Mening ikki ko'zim nonda edi. Kimdir nonning kuyganiga e'tibor berarmikan deb kutib turdim. Lekin otam nonni indamasdan chaynadi va mendan maktabda kunim qanday o'tganini so'radi.

O'sha kuni ovqatdan keyin, dasturxonni yig'ayotib onamning otamga non biroz kuyib pishganini ming xijolat bilan aytgani kechagidek yodimda. Otam o'sha kuni jilmayib turib, onamga: "Azizam, kuygan non menga yoqadi-ku", – dedi.

Uxlashdan oldin otamga xayrli tun tilash uchun uning oldiga kirdim. Qiziquvchanligim ustun kelib, undan kuygan nonni rostdan ham yaxshi ko'rish-ko'rmasligini so'radim. Otam meni bag'riga bosib, qattiq quchoqladi va shunday dedi: "Bilasanmi, o'g'lim, hayot hech qachon mukammal bo'lmaydi. Onang kun bo'yi ishlab, juda charchagan. Bir marta kuygan non yesam, menga biror nima bo'lmaydi. Lekin yomon so'z onangni qattiq jarohatlagan bo'lar edi.

Biz barchamiz xom sut emgan bandalarmiz. Kezi kelganda muhim sanalarni, zarur narsalarni, burchlarimizni esdan chiqarib qo'yamiz. Shuncha yillar mobaynida o'rgangan narsam shuki, ba'zan bir-birimizni kamchiliklarimiz bilan qabul qilishimiz kerak. Boisi hayot afsuslar bilan uyg'onish uchun juda ham qisqalik qiladi".

Sizga mehribon odamlarni avaylang, sizni yomon ko'rganlarga rahmdil bo'ling.

(Doktor Abdul Qalam)



2-topshiriq. Matn xulosasida aytilgan fikrga munosabat bildiring.



1-mashq. Matndagi ushbu fikrdan kelib chiqib, siz uchun eng muhim hisoblanadigan sanalar, zarur deb hisoblaydigan narsalaringiz va burchlaringizni yozing.

Biz barchamiz xom sut emgan bandalarmiz. Kezi kelganda, zarur narsalarni, muhim sanalarni esdan chiqarib qo'yamiz.

1. Men uchun muhim sanalar:
2. Zarur deb hisoblaydigan narsalarim:
3. Burchlarim:



3-topshiriq. Ota-onalar haqidagi maqollar mazmunini izohlang.

Boshni fido qilg'il, ano qoshig'a,
Jismni qil sadqa, ato boshig'a.
Tun-u kuning aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.


(Alisher Navoiy)

Otalar so'zi – aqlning ko'zi.



4-topshiriq. Xalqimizda otalarga ko'rsatiladigan hurmat-ehтиrom shakllarini o'qing va davom ettiring.

1. Xonadonning to'rida faqat ota o'tiradi.
2. Ota o'tirgan uyning tomiga ham chiqilmaydi.
3. Otaning gapini bo'lish, aytganini bajarmaslik mumkin emas.
4. Otadan avval ovqatga qo'l uzatilmaydi.
5. Har bir ish otaning "oq fotiha"si bilan boshlanadi.

 Otangizning qaysi odatlarini ko'p eslaysiz? Uning hayot tajribasidan nimalarni olgansiz? Bolalik xotiralaringizni eslab yozing.

2-DARS

  **1-mashq.** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan olingan “ibrat” so‘zi bilan bog‘liq ma’nolar haqidagi izohlarni o‘qing. Ular ishtirokida gap tuzing.


Ibrat – o‘git, pand-nasihat, namuna, o‘rnak. Namuna, o‘rnak bo‘ladigan ish, xatti-harakat.


Ibrat olmoq – o‘rnak olmoq, o‘rganmoq.

Ibratli – ibrat bo‘ladigan, namuna, o‘rnak olsa arziydigan.

Ibratomuz – ibrat bo‘larli, namuna, o‘rnak bo‘larli.

Ibratxona – teatr.

 **5-topshiriq.** Tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati haqida qanday ibratomuz voqea-hodisalarni bilasiz? Shu haqda o‘zaro suhbatlashing.

 **6-topshiriq.** Matn nima haqida ekanligini aniqlang va unga sarlavha qo‘ying.

“Boburnoma”da buyuk shoh va shoir Boburning ota sifatida o‘g‘illariga bergan o‘g‘itlari ham aks etgan bo‘lib, ular shunchaki tarbiya emas, balki bobosi Amir Temur vasiyatlarining davomi edi. Temuriy shahzodalarning, xususan, Husayn Boyqaroning o‘z o‘g‘illari bilan noahilligi, toj-u taxt uchun talashishlari Bobur uchun katta ibrat bo‘lgan edi. Shu bois Bobur to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyun Mirzoga ukalari Hindol, Komron, opa-singillari bilan hamisha hamjihat bo‘lishni vasiyat qilib, Humoyunga atalgan maktubida (bu maktub uning boshqa o‘g‘illariga ham yuborilgan) shunday yozadi: *“Agar mening rizomni tilarsen, kunda ikki navbat iningni va beklarni qoshingga chorlab, har maslahat bo‘lsa*

kengashib, bu davlatxohlarning ittifoqi bila unga qaror bergaysen.” [A]

Boburning o‘z yaqinlariga mehribonligi, hatto xiyonat qilganlarni ham kechirib, ularga iltifot ko‘rsatganligi haqida qizi Gulbadanbegim shunday yozadi: “Hazrat Muhammad Husayn Mirzoning gunohini kechirdilar. Keyinchalik xolalarining ko‘nglida g‘ubor qolmasin deb, ilgaridan ham ortiq hurmat qildilar. Har kuni xolalarining bo‘sh qolgan uylariga kelib-ketib turdilar va oxiri (Muhammad Husayn Mirzoni) saroyda bir o‘ringa tayinladilar.” [B]

Birgina shu harakatda bag‘rikenglik, insoniylikning yuksak namunasi, birlikka da’vat, temuriylar xonadoni sha’nini baland tutish, ayol zotiga ehtirom fazilatlarini mujassam edi. Boburiylar saltanatining besh asrluk tarixi, shu davr ichida uning nabira, abiralari tomonidan Hindistonda olib borilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, albatta, Boburning o‘zi hayotlik vaqtida farzandlariga qoldirgan ibratli harakatlari natijasi edi.

(H.Qudratullayev. “Bobur armoni” asaridan)



2-topshiriq. Matnda fikrni to‘ldirishga xizmat qilgan birikmalarni ko‘chiring. Ular nima uchun qavs bilan yozilganini tushuntiring.



3-mashq. Matndan tarixiy shaxslar nomlarini yozib oling. Ular haqida ma’lumot bering. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Tarixiy shaxslarning nomlari	Erishgan yutuqlari



8-topshiriq. Matnda ajratib ko‘rsatilgan *A* va *B* bandlarida qanday ibrat namunalari berilgan? Munosabatingizni bildiring.



Bobolarimizdan avlodlarga o‘tib kelayotgan ibratli fazilatlarga nimalarni kiritish mumkin? Fikringizni misollar bilan izohlab yozing.

MUNDARIJA

1-mavzu. O'zbekiston – kelajakda. (Uyushiq bo'laklar).....	3
2-mavzu. Ziyraklik. (Ajratilgan bo'laklar).....	10
3-mavzu. Buyuk ajdodlarimiz. (Kiritma bo'laklar).....	15
4-mavzu. O'lkamizning asl farzandlari. (Undalma).....	19
5-mavzu. Orzumdagi kasb. (Monologik matn).....	27
6-mavzu. Hunarning sharofati. (Dialogik matn).....	32
7-mavzu. Kino tadbirkorligi. (Matn bilan ishlash).....	37
8-mavzu. Qardosh xalqlar do'stligi. (Iboralar).....	41
9-mavzu. Dunyo tan olgan adiblar. (Ko'chma ma'noli so'zlar).....	45
10-mavzu. Vaqt qadri. (Sinonim va antonim so'zlar).....	55
11-mavzu. Iste'mol madaniyati. (Omonim so'zlar).....	62
12-mavzu. Xatoni tan olish. (Tasviriy ifodalar).....	69
13-mavzu. Sayohatning foydasi. (Nutq uslublari. So'zlashuv va badiiy uslub).....	75
14-mavzu. Savdoning xosiyati. (Rasmiy va ilmiy uslub).....	81
15-mavzu. Odamiylik bahosi. (Publitsistik uslub).....	87
16-mavzu. Ota ibrati. (O'tilganlarni takrorlash).....	90

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Nazarov K , Sayfullayeva R , Ubaydullayeva M.* O'zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). – T., O'qituvchi, 1993.
2. *Egamberdiyev I, Haydarov A.* Donolar pandlari. T., CLOBAL BOOKS, 2017.
3. *Mirzakalon Ismoilij.* Inson husni. – T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
4. *Nurmonov. A. Rasulov. R.* O'zbek tili jadvallarda. T., "O'qituvchi", 1993.
5. *Yo'ldoshev R.* O'zbek tilini o'rganamiz. – T.: O'qituvchi, 1996.
6. *Sattorov Sh.* Biz g'alaba qozonamiz. – T.: Bilim va intellektual salohiyat nashriyoti, 2018.
7. *Safo Ochil.* Inson ziynati odobdur – T.: "O'qituvchi", 1996.
8. *Etiketning oltin kitobi.* – T.: Yangi asr avlodi, 2013.
9. *O'zbek xalq maqollari.* – T.: Gafur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

O'quv nashri

**Muxitdinova Xadicha Sobirovna, Tolipova Fotima Sa'dullayevna,
Nuriddinova Dildor Abrorovna, Abduraimov Shohruh Samad o'g'li,
Eshboyeva Ra'no Berdiyevna**

O'ZBEK TILI

Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy
o'rta ta'lim maktablarining
11-sinf o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma

Muharrir: *Javlon Yahshiboyev*
Badiiy muharrir: *Izzat Yo'ldoshev*
Texnik muharrir: *Tatyana Xaritonova*
Musahhihlar: *Malohat Ibragimova, Dono To'ychiyeva*
Sahifalovchi: *Umida Valijonova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016.
2020-yil 9-sentabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90¹/₁₆.
Arial garniturası. Kegli 12 . Ofset bosma.
7,02 shartli bosma taboq. 5,0 nashr tabog'i.
Adadi 91260 nusxa. ____ raqamli buyurtma.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, 100128. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-19-42

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz